

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI.
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI

***AXLOQIY TARBIYANING MAVJUD
METODLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA
YANGICHA YONDOSHUVLAR***

mavzusidagi bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: *Boboqulova Dilobar Fatillayevna*

Boshlang`ich talim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi
Talabasi

Ilmiy rahbar: katta o`qituvchi H.B.Aliqulova

Rasmiy hakam: p.f.n. F.Aminova

Navoiy-2012

MUNDARIJA

KIRISH.....

1-BOB. “MA’NAVIYAT – INSONNING ULG’AYISHI VA KUCH-QUDRATINING MANBAI”

1.1. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida
axloqiy tarbiya to’g’risidagi pedagogik qarashlari

1.2. Axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini
takomillashtirishga yangicha yondoshuvlarning bugungi
kunda jamiyat taraqqiyotidagi o’rni.

2-BOB. AXLOQIY TARBIYANING MAVJUD METODLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA YANGICHA YONDOSHUVLARDAN FOYDALANISH YOLLARI

2.1. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ta’lim jarayonida
axloqiy tarbiya berish yollari

2.2. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga darsdan tashqari
tarbiyaviy tadbirlarda axloqiy tarbiyalashda pedagogik
texnologiyalarni qo’llash yo’llari

Umumiy xulosalar va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Kirish

Tarbiya – insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Islom Karimov

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritib suveren davlat sifatida taraqqiy etish jarayonida siyosiy imkoniyatini qo‘lga kiritganligidan boshlab tarixan qisqa vaqt mobaynida asrlarga teng yutuqlarni qo‘lga kiritishga muvoffaq bo‘linmoqda. Ana shunday yutuqlardan biri yosh avlodni, ayniqsa ta’lim oluvchi talabalarni o‘z vataniga mehr – muxabbat qo‘yadigan, sodiq va barkamol, bilimdon, komil – insonli avlodni voyaga yetkazishning to‘la imkoniyati yaratilganligidir. Ana shunday imkoniyatlarga keng yo‘l ochib berishga xizmat qilayotgan, prezidentimiz tashabbusi bilan 1997 yil 27 avgustida Oliy Majlisning IX – sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinganligidir. Bu qonun va «Milliy dastur»ning asosiy maqsadi kelajakda o‘z vataniga sodiq, bilimdon, raqobatbardosh ixtisosli mutaxassis kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazish bo‘lsada, buning uchun ta’lim tizimini, qaramlik asoratidan, qizil mafkuraviy tushuncha va sarqitli qarashlardan batamom xolis etishdan, kelajakda rivojlangan demokratik davlat darajasiga muvofiq keladigan ma’naviyatli, barkamol, yuksak malakali kadrlar ni milliy g‘oya ruxida tayyorlab, berishdan iboratdir.

Yurtboshimiz I.A. Karimov o‘zining so‘zlagan nutqlaridan birida bejiz aytmagan: “Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma’nosi qobil farzandlar o‘stirish, ularni ma’naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko‘rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir”¹ Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma’naviy, axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma’naviy, axloqiy negizlar zaminida umuminsoniy

¹ Islom Karimov. Vatani sajdagox kabir muqaddasdir. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1995, 4 bet.

va milliy qadriyatlar mushtarakligi, Respublikamizdagi barcha fuqarolarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish orzusi yotadi. Chunki shaxs tafakkurini o'stirmasdan, uning ma'naviy dunyosini boyitmasdan turib, ijtimoiy, iqtisodiy madaniy jabhalardagi vazifalarni bajarish, milliy istiqlol mafkurasini to'la-to'kis yaratish mumkin emas. Mustaqil Respublikamizda mustaqillik yillardan boshlaboq ta'lim sohasiga nihoyatda katta e'tibor qaratilib, amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchi yoshlarni har tomonlama kamol topishlari uchun zamin tayyorlamoqda. Barkamol avlod uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlar mohiyati ko'p jihatdan ertangi kun yoshlariga hamda ta'lim –tarbiya ishlarni to'g'ri tashkil qilishga bog'liq bo'ladi.

Ayni vaqtda eng muhim vazifalaridan biri, yoshlarni ta'lim - tarbiya sohasida axloqiy tarbiya berishda yangicha yondashuv zarur. Chunki yoshlar orasida turli zararli oqimlarga kirib ketish, ichkilik va odob-axloq me'yorlaridan chekinish holatlari kelib chiqmoqda bu biz tanlagan bitiruv malakaviy ishimizning asosiy dolzarb muammosidir. Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish axloqiy tarbiyani ta'lim-tarbiya jarayonida yangicha yondoshish, sifat, mazmun jihatdan to'g'ri tashkil etishdan iborat. Bu vazifani hal etish yo'llarini o'quv jarayonini oqilona yo'lga qo'yishdan, uning ortib borayotgan ahamiyatidan qidirish lozim.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlodga milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitishda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondoshib ish olib bormoqdalar va yaxshi ko'rsatgichlarga erishib kelmoqdalar.

Mustaqil Respublikamizda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash miliy dasturidan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kundagi barcha islohatlar inson manfaatlariga qaratilgan. Har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson o'zida madaniyat, ma'naviyat, iymon-e'tiqod, mehr-shafqat, insonparvarlik, vatanparvarlik, saxiylik, go'zallik, milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish insonni ulug'lagan. Bolalarga oiladan

boshlab, bog`chadan, maktabdan jamoat joylarida o`zini tutish va o`z-o`zini boshqarish odobiga o`rgatishda axloqiy tarbiyaning ahamiyati katta ekanligi ma'lumdir. Bu borada ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish borasida o`quvchilarini jamoat joylarida o`zini tutish va o`z-o`zini boshqarish odobiga o`rgatishda axloqiy tarbiyaning ahamiyati katta ekanligi takidlab o`tilgan.

Axloq, arabcha so`z bo`lib, ular o`zbek tilida ham o`z ma`nosida ishlatiladi. Axloq bizning hayotimizda va ongimizga faol ta`sir etadi, kishilik jamiyati nomidan yaxshilik bilan yomonlik, adolat bilan adoltsizlik, mehr bilan zulm o`rtasidagi va insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etiladigan ishlarni, hatti-harakatlarni belgilab beradi. Axloqiy tarbiya insonni ezgullikka etaklaydi. Demak, axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi.

SHuning uchun bu mavzu dolzabligini bugungi kunda yo`qotmagan holda mening bitiruv malakaviy ishim mavzusining yo`nalishini, izlanishini, dolzarb va zamonaviyligini belgilashga asos bo`ladi. Ta'lim-tarbiya borasidagi bunday yo'l, asta-sekin maktabni tegishli tarzda inqirozdan qutqarib, boshi berk ko`chadan nurafshon yo'lga olib chiqishiga umid bog`lasa bo`ladi. Zero, dunyo madaniyati xazinasidan munosib o`rin olgan ota-bobolarimizning go`zal xulq atvori madaniyati, axloqiy tarbiya haqidagi meroslaridan, ko`pni ko`rgan buva va buvilarimizning o`git, pand va nasihatlaridan, pedagog – olimlarimizning axloqiy-tarbiya haqidagi ta`limotlaridan foydalanib ish yuritsakgina ko`zlangan maqsadga erishsak bo`ladi.

Shunday ekan, yoshlarimiz yaxshi bilim olishlari, sog'lom, tetik va aqlan ziyrak ma`naviy va axloqiy go`zal bo`lishlari kerak. Buning uchun asosan oilada, ta'lim-tarbiya muassasalarida yoshlarga katta e`tibor berilishi, bunda yoshlarni zamon talabiga xos ravishda tarbiyalanmog`i lozim. Buning uchun biz Navoiy viloyati Navoiy shahri №5-sonli umumta`lim maktablarining boshlang`ich sinf o`quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishga yangicha yondoshuvlarini maqsad qilib oldik.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Bir qator pedagog olimlar: R.Mavlonova, O.To'rayeva, A.Q.Munavvarov, K.Xoshimovlar, Ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarni mustaqil fikrga ega bo'lishi, ijtimoiy faolligini oshirish va yanada rivojlantirish kabi jarayonlar rivojlanishini tadqiq etishgan bo'lsalar, respublikamiz olimlari: O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, E. G'oziyev, SH.Abdullayevalar yoshlarda kechayotgan axloqiy nuqsonlarni bartarab etish yo'llarini buning uchun ularda ijodiy qobiliyatlari, iste'dodlarini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini olib borganlar. O.Musurmonova, S. Nishonovalar bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni kamol toptirishga doir tadqiqot ishlari olib borishganlar.

Tadqiqotning maqsadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari, axloqiy tarbiyani o'quvchilar ongiga singdirishda yangicha yondashuv yo'llarini topish hamda mazkur muammoni nazariy jihatdan asoslash, shart-sharoitlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti: boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishda yangicha yondoshuvining pedagogik shart-sharoitlari tashkil qilish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirish yangicha yondoshuv va samarali yo'llari, metod va shakllari.

Ilmiy jihatdan yangi ekanligi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishda yangicha yondoshuvi ilmiy-nazariy jihatlari asoslandi;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyani mavjud metodlar orqali shakllantirish jarayoni aniqlandi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishda yangicha yondoshuvining asosiy mezonlari belgilandi.

Agar:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishda yangicha yondoshuvilari ilmiy - amaliy asosga ega bo'lsa;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishda yangicha yondoshuvining pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviyati va axloqiy xulqi, ijtimoiy faolligini oshirishga erishilsa;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishda yangicha yondoshuvining samarali yo'llari, shakl va metodlari maqsadga muvofiq tashkil etilsa;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan yaxlit tarbiya nazariyasini rivojlantirish samaradorligi ortadi.

Tadqiqotning vazifalari:

1. boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirish qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish
2. boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishda yangicha yondoshuv jarayonini belgilash.
3. boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishda yangicha yondoshuvda hamkorlik yo'llarini va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalninganda o'quvchilarda axloqiy tarbiyani shakllantirishlik ko'rsatkichlari aniqlash.

Tadqiqot metodlari: ilmiy nazariy tahlil; pedagogik tahlil; pedagogik kuzatuv; suhbat; intervyu; so'rovnomalar; tajriba-sinov; qiyosiy tahlil; matematik –statistika; natijalarni umumlashtirish;

Tadqiqotning metodologik asoslari: Respublika Prezidenti I.A.Karimovning ta'limni isloh etishga doir g'oyalari "Barkamol avlod yili"dasturi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Respublika hukumati hamda vazirliklarning ta'lim-tarbiyani yangilashga doir me'yoriy xujjatlari, SHarq mutafakkirlarining axloqiy tarbiyaga oid qarashlari.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy pedagogika, tarbiyaviy ishlar metodikasi nazariy yondashuvlar bilan boyitildi, ta'lim jarayonida esa ilmiy metodik tavsiyalarga ega bo'lindi. SHuningdek, natijalardan yoshlarda axloqiy tarbiyani oilada, bog'chada, maktablarda shakllantirishda foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot ishining sinovdan o'tganligi: tadqiqot ishi Navoiy viloyati Navoiy shahrida sinovdan o'tdi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: bitiruv malakaviy ish kirish, 2 bob, umumiy xulosalar, adabiyotlardan iborat.

I.BOB. “MA’NAVIYAT – INSONNING ULG’AYISHI VA KUCH- QUDRATINING MANBAI”

I-1. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida axloqiy tarbiya to’g’risidagi pedagogik qarashlari

Ma’naviyat shunday kuchki, insonni ulug’ Bunyodkorlikka, Vatanparvarlikka, Ezgulikka yetaklaydi. U insonni ezgu maqsadlar qo’yishga va uni amalga oshirish yo’lida fidoyilarcha o’zini bag’ishlashga undaydi. Ma’naviyat insonning g’oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy pozitsiyasini belgilab beradi. Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish davr talabidir.

Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil inson etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasini asosiy maqsadi vazifasi bo’lishi lozim, deb ta’kidlaydilar yurtboshimiz. .

Ma’lumki, istiqlol yillarida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilish va rivojlantirish masalasi davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilanib, Prezidentimiz Islom Karimovning doimiy e’tibor markazida bo’lib kelmoqda. Yurtimizdagi barcha islohotlar qatori bu sohadagi tarixiy o’zgarishlar ham davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi va rahnamoligi ostida amalga oshirilmoqda. Xususan, ushbu sohada tub burilish yasagan, ta’limning ma’no-mazmunini butunlay o’zgartirib yuborgan “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi kabi mustaqil taraqqiyotimizda tom ma’noda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lgan muhim hujjatlar YUrtboshimizning yosh avlod haqidagi g’amxo’rlik va e’tiborining amaliy ifodasi sifatida vujudga kelganini barchamiz yaxshi bilamiz. Aynan ana shu qonun hujjatlari asosida diyorimizda ta’limning bugungi talablarga to’liq javob beradigan zamonaviy modeli shakllandi va uning samarali faoliyati nafaqat o’zimizda, balki dunyo miqyosida ham tan olinmoqda.

Birinchi navbatda Prezidentimiz asarlaridagi, xususan, “YUksak ma’naviyat – yengilmas kuch”² asarida ko’rsatilgan va talab etiladigan yuksak ma’naviyatli shaxs asosiy fazilatlari majmuasini shakllantirish va ularni maqsadli ravishda yoshlarga singdirish ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarining tizimli olib borilishiga imkon beradi. Ular asosida yuksak ma’naviyatli shaxs modelini yaratish mumkin. Ushbu model asosida ta’lim tizimida asosiy fazilatlarni singdirish mexanizmi va tarbiya yo’nalishlarini shakllantirishga kirishish mumkin. Nazarimizda bugungi kunda dolzarb bo’lgan quyidagi tarbiya yo’nalishlari ustida to’xtab o’tish o’rinlidir:

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiya.
2. Siyosiy yetuklik va g’oyaviy sobitlikni shakllantirish.
3. Diniy bag’rikenglikni shakllantirish.
4. YUksak estetik did va madaniyatni shakllantirish.
5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.
6. Sog’lom turmush tarzi va jismoniy madaniyatni shakllantirish.

Bugungi murakkab vaziyat, ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, jahonning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib, ildiz otib borayotgan ma’naviy inqiroz xavfi xalqimiz ma’naviyatini asrash barobarida uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g’oya va mafkuralar ta’siridan himoya qilish, ularni ma’naviy kamolotini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratishni talab qilmoqda. O’z navbatida bu narsa ta’lim jarayonini ma’naviy tarbiya bilan uyg’un olib borish zaruratini keltirib chiqaradi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, moddiy va ma’naviy olam uyg’unlashib, insonning qo’sh qanotiga aylansagina, jamiyatning to’laqonli erkin rivojlanishi ta’minlanadi.

Yuksak ma’naviyatli shaxsning kamol topishida diniy bag’rikenglik (tolerantlik) madaniyatining o’rni va ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarning ahamiyati oshib

² Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.,”Ma’naviyat”, 2008 y

borayotganligi yoshlarda diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishga nisbatan e'tiborni yanada oshirishni taqazo etmoqda.

Diniy bag'rikenglik – bu turli e'tiqodlarga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor, hamjihat bo'lib yashashini ifodalaydi.

YUksak ma'naviyatli shaxsga nisbatan qo'yiladigan talablardan yana bir muhimi mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik fazilatlaridir. Hozirgi globallasuv sharoitida mentalitetimizga xos bo'lmagan buzg'unchi kuchlarning ma'naviy-mafkuraviy tahdidiga qarshi kurashchanlik, jaholatga ma'rifat bilan javob berish, ular xatti-harakatlari keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlarini ochiq tushunish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy ma'naviy meroslarimiz vositasida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni innovatsion asosda tarbiyalash zamonaviy ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammosidir.

Ayni paytda muxtaram yurtboshimiz I. A. Karimov o'zlarining nutq va maqolalarida barcha chiqishlarida, qator risolalarda komil inson tarbiyasi masalasini yosh avlodga munosabat masalasini hech qachon chetlab o'tgan emas, aksincha bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'lim tarbiya masalasini mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhimligini shunday ifodalaydi. Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mulohaza qilaman.

"Axloq" — tushunchasi, pedagogika fanida har tomonlama axloqiy sifatlar (yaxshilik, insoniylik, xulqlilik, odoblilik, kamtarlik, kechirimlilik, tutrilik, sofdillik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish, olijanoblik, fidoyilik, vatanparvarlik, mehribonlik va boshqalar)ni egallagan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan atamadir.

Axloq – ijtimoiy ong formasi bo'lib, ijtimoiy hayotning hamma soxalarida ainq ongnning xulq- atvorini yo'lga so lib turadigan printsiplar, talablar, normalar va qoidalardan iborat. Axloqda jamiyatda ta rkib topgan «yax shilik», «sh a r a f»,

«vijdo n», « a d o l a t» singari tushunchalarda mustaxkamlangan odamlar hulq atvori, normalari aks etadi. Bu axloqiy tushunchalarning hammasi ham bahola nuvchi harakterga ega .

Odamning inson sifatida shakllana borishida uning kamolati darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat kabi xislatlarning unda qanchalik mujassamlashgani bilan belgilanadi. SHu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida tuxtalib o'tishi joizdir.

Odob – har bir insonning o'ziga bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqatida ham yurish-turishida o'zini to'ta bilishidir.

Xulq – odobning ichki tuyik, ko'nikmaga aylangan ko'rinishi.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qo'llangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat – «jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmui»

Ma'naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruxiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asarida komil insonlar haqida shunday deydi³: «Yaxshi fazilatlarni o'ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur». Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, saxiy, mehnatkash, mehr-shafqatli, bilmdon, o'zgaralar uchun qayg'uradigan mard insonlarni ko'zda tutsa, «Yomon insonlar deb, yomonlik fazilatleri yaxshilik fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi», deydi.

A.Munavvarovning «Pedagogika»⁴ o'quv qo'llanmasida axloq quydagicha tarif berilgan: Axloq, xulq va atvor suzlari arbacha bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi.

Ayrim adabiyotlarda axloq kishlarning xar bir jamiyatga xos xulq normalari majmui, deyilsa boshqalarida esa, axloq ijtimoyi ong shakllaridan biri, sotsial

³ Абдулла Авлоний .“Туркий гулистон ёхуд ахлоқ”,Тошкент ,”Ўзбекистон “,1992 ,12-бет

⁴ А.Мунавваров. Педагогика. Т., “Ўқитувчи”, 1996 й, 187 б

tartib-qoida bulib, bu tartib-qoida ijtimoiy xayotning istisonsiz xamma soxalarida kishilarning xatti-xarakatini tartibga solish funksiyasini bajaradi deyiladi.

Abdulla Avloniy axloq bergan tar'fi⁵ : Insonlarni yaxshilikg'a chavqruguvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. YAxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan **kitobni axloq** deyilur.

«**YAxshi xulq**» deb agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikqa tavsif bulishga aytiladi.

«**Yomon xulq**» agar tarbiyasiz usib, yomon ishlaydurgan bulur ketsa, yomon tavsif buliish aytiladi.

R.Mavlonova, O.Turayeva «Pedagogika»⁶ darsligida axloq quydagicha ta'rifi berilgan: Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bulib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-sharakat qoidalari yig`indisidir.

Axloq odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mexnat maxsulotlari va shu kabilarga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-xarakat qoidalari tizimida namayon buladi.

O'zbekiston Resbplikasi enikelopediyasida axloq qoidasiga quydagicha izoh berilgan:

Axloq kishlarning bir-birlariga, oila, jamiyatga bulgan munosabatlarida namayon buladigan xatti-xarakatlari, xulq-atvori, odoblari majmuasi huquqdan farqli ravishda axloq talablarining bajarish-bajarmalik ma'naviy ta'sir kursatish shakllari bilan belgilanadi. Axloq etika fani o'rganadi.

Binobarin, ta'lim tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturi, asosida ta'lim tarbiya islohotlari keng amalga oshirlmoqda. Xalqimiz ma'rifati va ma'naviyatini yuksaltirishga harakat qilinmoqda. Yer, oila, ota-ona, mustaqil davlatimizga sadoqat,

⁵ Абдулла Авлоний. Тошкент, "Ўзбекистон", 1992, 18-бет й

⁶ R.Mavlonova, O.Turayeva .Pedagogika. T., "O'qituvchi", 2006 y

insonlarga hurmat, ishonch, vijdon erkinlik-ma'naviyat ma'rifatning ma'nosi ana shunday juda kengdir. Erkin fuqaroni ongli mustaqil fikrga ega bo'lgan aqlan barkamol, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, shaxsni tarbiyalash hozirgi kunning muhim talabidir. Bu boradagi ishlarni aniq maqsadni amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga moillik dasturlar rejalar dasturlar ishlab chiqildi. Birgina o'tayotgan yillarning atalishida ham buni ko'rish mumkin. 1996 –yil A.Temur yili, 1997 yil “Inson manfaatlari” yili deb e'lon qilindi. Jamiyatdagi fuqarolar manfaatini himoya qilinmagan ularning ehtiyojlari qondirilmagan davlat hech qachon qudratli bo'lolmaydi. Shu bois ham avvalo inson qadri qimmatini oliy darajaga ko'tarildi. 1998 yil “Oila yili” deb e'lon qilindi. Ayol onaning jamiyatda, o'rnini, kelajagini, belgilashdagi bir qancha qarorlar qabul qilindi. Ayolning bola tarbiyasidagi muhim o'rni ham hisobga olindi va ularga e'tibor yanada kuchaydi. 2000 yil-“Sog'lom avlod yili” deb e'lon qilindi. Bu bilan yuqoridagi maqsadlar, niyatlar bilan birga bir narsaga ya'ni buyuk kelajak barpo etila boshlandi. Kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni har tamonlama sog'lom insonlar qilib tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlar yanada kuchaytirilib yuborildi. 2001 yil-“Onalar va bolalar“ yili deb e'lon qilinib, ona va bolalarga katta g'amxurlik ko'rsatildi. Bu oldindan e'lon qilingan yillarning mantiqiy davomi bo'lib, belgilangan ijobiy ishlar yanada kengroq davom ettirilib borildi. 2002 yili “qariyalarni qadrlash yili” deb e'lon qilinib, jamiyatimizning hech bir qatlami e'tibordan chetda qolmasligi ko'rsatilishi bilan birga o'zbek xalqining keksalarga hurmat saqlash borasidagi azaliy qadriyatlar ham yana bir bor o'z ifodasini topdi. 2003 -yili “Obod mahalla”, 2004- yil “Mehr va muruvvat” va 2005- yil “Sihat-salomatlik” yili deb e'lon qilinishi barchasi inson manfaatlari qaratilgan bo'lib, yillarning bunday nomlanishlari va ularda turli dasturlarni qabul qilinishi, ular asosida amalga oshirilayotgan tadbirlar hammasi inson va uning manfaatlariga xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Inson uning har tamonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi shaxs, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va

ta'sirchan mexanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi harakatlantiruvchi kuchidir 2006 – yil “Homiylar va shifokorlar” , 2007 - yil “Ijtimoiy himoya yili”, 2008 - yil “Yoshlar yili”, 2009 –yil “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”, 2010 - yil “Barkamol avlod”, 2011-yil “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”, 2012 –yil “Mustahkam oila”yili deb e’lon qilinishi bejiz emas. Bularning barchasi Vatan el –yurt uchun,Vatan farovonligi uchun qilinayotgan buyuk ishlardir.

1993 yil ”Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontsepsiyasi”, 1997 yil esa O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi qonun”va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Bulardan ham asosiy maqsad yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish har tamonlama komil insonlarni va yetuk kadrlarni tarbiyalab yetishtirishdir. Ayniqsa biz yoshlarga bo’lgan e’tibordir, chunki kelajak yoshlar qo’lida. Biz yoshlar “Vatan” degan so’zni el-yurt, xalqimizning farovonligi uchun quyidagilarga o’z qalbimiz va ongimizda rivojlantirib borishimiz zarurdir.

- Vatanparvarlik me’yorlariga mos xislatlarni shakllantirish, qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat xislarini rivojlantirish;

- O’zimiz yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish yo’lida g’amxo’rlik qilish;

- O’z xalqimiz, davlatimiz, uning himoyasi uchun hamisha shay bo’lishga;

- Mehnatga bo’lgan ijodiy munosabatimizni tarbiyalash, sog’lom turmush tarzi uchun intilish;

- **Axloqiy fazilatlarni** (mehribonlik, shafqatlilik, adolatparvarlik va boshhqalarni)o’z ongimizda takomillashtirish;

Ko’rinib turibdiki, biz yoshlarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish uchun yaxlit axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishda yangicha yondoshuvi tarkib topmaguncha bu masala o’z yechimini topa olmaydi.

Ayrim hollarda ta'lim berishda asosiy urg'u bilim berishga qaratilishi va ba'zi tarbiyaviy masalalarda ma'suliyatsizlik tufayli ba'zi yoshlarimizning boshi berk ko'chaga kirib qolish hollari uchramoqda, shu sababli bugungi kunda jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy negizini takomillashtirish maqsadida taqdim qilinayotgan o'quv materiallarining g'oyaviy jihatdan yetuk bo'lishiga erishish zarur. Bunda o'quvchilarda vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirish orqali umumiy madaniyat saviyasini o'stiradigan, zarur bo'lsa, xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etuvchi tizim orqali ta'sir etish zarur.

Barchamiz yaxshi bilamizki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.

O'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy o'qishlari uchun g'amxo'rlik qilish, ularning moddiy ahvollarini yaxshilashga e'tibor berilmoqda. Jumladan, 1984 yildan beri xalq maorifi xodimlarining oylik maoshlari oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelmoqda.

Allomalardan Rizouddin ibn Faxriddin aytadi:

- Har bir odam va har bir elning saodatli bo'lishiga bosh sabab ilmdir. Ekinlar uchun yomg'ir, sug'orish qanday kerak bo'lsa, odam bolasi uchun ham ilm shu darajada keraklidir.

Bolalarini ilmli, odobli qilib o'stirish ota-onaning burchidir. Muallimlar ham bu muqaddas vazifadan chetda emaslar. Agar muallim esangiz, shogirdlaringizning har bir harakatini ko'z oldingizda tuting, ularni xushmuomalali bo'lishga o'rgating, jamiyatning foydali a'zolari qilishga erishing. Bolalarni nojuya so'z, nojo'ya xatti-harakatdan to'xtab qolishga o'rgatib, o'zi esa o'zini to'xtata olmaydigan, bolalarni dustlik, o'rtoqlikka o'rgatib, o'zi esa ular bilan o'rtoq, do'st sifatida emas, balki katta rahbar sifatida muomalada bo'ladigan tarbiyachi yomon tarbiyachidir.

Bu o`rinda dono xalqimizning kamtarlik to`g`risidagi quyidagi hikmatini keltirish joizdir.

Uluglik aylama zinhor, o`zingni kamtar tut,

Kimdaki bo`lsa bu xislat ajab saodatdir.

Kishi shaxsining dastlabki asoslari vujudga keltiriladigan maktabgacha tarbiya yoshida kattalarning bolaga ta`siri ayniqsa katta bo`ladi. Bola aqliy va axloqiy jihatdan faqat kattalarning to`g`ridan-to`g`ri ta`sirida tarbiyalanadi, kamolga yetadi. Hech qanday shakllar, hech qanday intizom, hech qanday ustav hamda mashg`ulotlar inson shaxsining ta`sirini sun`iy ravishda almashtirishi mumkin emas. YOsh qalb uchun bu quyoshning samarali nuridir, buni hech narsa bilan almashtirib bo`lmaydi. Bola shaxsining shakllanishida tarbiyachining yetakchi rol o`ynashi uning har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi.

SHarq mutafakkirlari axloqni ikkiga ajratib tasnif etadilar. CHunonchi atoqli pedagog va shoir Abdulla Avloniy odamlarni axloqiy jiratdan ikki toifaga bo`ladi va har qaysi toifaga xos bo`lgan sifatlarni izohlaydi. Uning ko`rsatishicha kishilar “yaxshi xulqli va yomon xulqli” bo`ladilar: “Axloq ilmi –insonlarning xulqlarini ikkiga bo`lishdir . Agar nafs tarbiyat topib , yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa ,yaxshilikka tavsif bo`lib “yaxshi xulq ”, agar tartibsiz o`sib ,yomon ishlar qiladurg`on bo`lib ketsa ,yomonlikka tavsif bo`lib “yomon xulq ” deb atalur.⁷

Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek: “Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha ,asl ma`naviy qadriyatlarni mensimasdan , eskilik sarqiti deb qarash bilan bog`liq holatlar bugungi taraqqiyotga , inson g`ayoti ,oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko`pchilik butun jahonda bamisoli balo –qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda.”⁸

⁷ Абдулла Авлоний .“Туркий гулистон ёхуд ахлоқ”,Тошкент ,”Ўзбекистон “,1992 ,12-бет.

⁸ Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch” ._T. “Ma`naviyat” 2008, 63b

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratgani ushbu asarda ishonch bilan ta'kidlanadi.

I-2. Axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishga yangicha yondoshuvlarning bugungi kunda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning muayyan axloqiy qoidalar va normalarni bilishi ma'naviy xulq-atvorning zarur shartidir. Biroq, axloq normalarini shu tariqa bilish o'z-o'zidan axloqiy xulq - atvorini tegishli darajaga erishtirmaydi. Buning ustiga, bilimlarni ma'naviy xulq-atvor amaliyotisiz o'zlashtirib olish ma'naviy bilimlar bilan ma'naviy xulq - atvori o'rtasidagi ajralishda ifodalanadi. SHuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarning hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda ijodiy- axloqiy sotsial-ijtimoiy xulq-atvor tajribasi uning shaxsini tarkib toptirishda asosiy bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda bu narsa ota-ona, do'stlar ta'siri ostida, o'qituvchi rahbarligida hosil bo'ladi. YOshlarda bilimlar tizimini: tabiiy, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy bilimlar tizimini tarkib toptirish bilan yuz berishi kerak.

Mustaqil O'zbekistonda ham ayniqsa, yoshlar, yoshlar o'rtasida, yuqorida ko'rsatilgan darajadagi iymonli-e'tiqodli yoshlar aksariyati ko'ngillikni tashkil qiladi, deb ayta olmaymiz. Chunki shu yoshdagilar orasida e'tiqodi, iymoni mustahkam bo'lmagan ma'lum miqdordagi yoshlar ham mavjuddir. Oqibat natijada mana shu guruhdagi yoshlarga mamlakatimiz tinchligiga, osoyishtaligiga tahdid solayotgan begona, yot, zararli g'oyalar, harakatlar tahdid solmoqda.

Har bir mamlakatdagi mavjud vijdon erkinligi fuqarolarning, xususan yoshlarning ruhiy va ma'naviy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga ma'lum

darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHuning uchun BMTning nizomidan tartib, barcha halqaro xujjat va shartnomalarda har bir mamlakatning o'ziga xos Konstitutsiya va qonunlarida bu masala o'z aksini topgan.

Ma'lumki, jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotgan taraqqiyotning "O'zbek modeli" yangilanishlarni bosqichma – bosqich amalga oshirishni taqozo etadi. Buni biz davlatimiz belgilab olgan strategik bosqich – siyosiy hamda iqtisodiy sohalarni, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Erkinlashtirish – mamlakatni taraqqiyot toptirish, aholining turmush darajasini yuksaltirishdir. Ushbu hodisa insonning mavjud muhitga moslashuvini emas, balki o'zining erkin tafakkuri orqali qarorlar qabul qilib, shu muhitni yaxshilashga olib keladi.

Ma'lumki tafakkur - inson ma'naviy dunyosining ifodasi. Agar shaxs ma'naviyatini yaxlit tizim sifatida tasavvur qiladigan bo'lsak, tafakkur tarzi uning hal qiluvchi unsuri hisoblanadi. Shaxsning tafakkur tarzi uning nafaqat ichki kechinmalari, madaniy va axloqiy darajasini, balki turli ijtimoiy munosabatlar doirasidagi hatti – harakatlar saviyasini ham ko'rsatadi.

Inson ruh va tafakkur egasi bulgan mavjudot sifatida o'zining tengsiz qobiliyatini, cheksiz va chegarasiz imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratildi. Endi har bir fuqaro o'zini ozod his etish, erkin faoliyat ko'rsatish orqali yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirishga, tom ma'noda o'zining taqdirini o'zi belgilash va shu orqali jamiyat taqdirini belgilashga daxldor ekanligini anglay boshladi. Har bir kishida jamiyat hayotiga daxldorlik, millat va mamlakat taqdiriga befarq bo'lmaslik hissi shakllana boshladi.

Mamlakatimizni modernizatsiyalash, jamiyatimizdagi ijtimoiy munosabatlarni erkinlashtirish jarayonlari izchil davom etayotgan hozirgi davrda amalga oshirilayotgan yangilanishlar jarayoni avvalambor dunyoqarashni o'zgartirishga qaratilganini anglab olish kerak. Bunda yangilik kurtaklari an'anaviy tafakkur tarzimizda ham mavjud ekanini, yangi demokratik g'oyalarni ularga payvand qilishimiz ijobiy samara berishi unutmazligimiz lozim.

O'zining buyuk kelajagini ijtimoiy yo'nalishdagi bozor iqtisodiyotiga asosan ochiq demokratik davlat barpo etishdan iborat, deb qat'iy qaror qabul qilgan xalqimiz bugungi kunda o'z madaniyati va an'analarini, dini va e'tiqodini, ona tili va qadimiy ma'naviyatini qayta tiklab, jahon xamjamiyatidan o'ziga mos o'rin egallamoqda. To'g'ri yo'lni tanlaganimiz, islohotlarning asosiy tamoyillarini to'g'ri belgilab olganmiz, yangilanish va taraqqiyotning O'zbekistan modeli o'zini to'la—to'kis oqlamoqda. Bu barcha yangilanishlarning tamal toshi ta'lim tizimidir. Uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inida amalga oshiriladigan ta'lim — tarbiya jarayoni murakkab tuzilmaga ega bo'lib, tizimli yondashuvni talab etadi.

Axloqiy tarbiya jarayoni murakkab va ziddiyatlidir. Bir qator vaziyatlar ta'siri ostida narozilik kelib chiqishi mumkin, bunga bolalarining axloqiy yurish-turishiga qo'yiladigan tashqi talablar bilan uning kattalar ko'rsatmalariga va talablariga mos kelmaydigan ichki intilishlari o'rtasidagi tafovvt sabab bo'ladi. Bunday noroziliklarning doimiy bo'lishi bolaning kattalar talablariga salbiy munosabatga asoslanadigan fe'l-atvorini shakllantiradi. Natijada tarbiyasi og'ir deb ataladigan bolalar vujudga keladi, ularning xulq-atvori ancha chatoq bo'ladi, ya'ni ularning yurish-turishi ijtimoiy jihatdan mustahkamlangan normalarga va qoidalarga muvofiq kelmaydi.

A.S.Makarenko ta'kidlaganidek, tarbiyasi og'ir bola binoyidek bola bo'lib, uning rivojlanishi umumiy qonunlarga bo'ysunadi, bu rivojlanishdagi ayrim buzilishlarning sabablarini oiladagi va bolalar bog'chasida maktabdagi turmush sharoitlaridan va tarbiya xatolaridan izlash kerak.

Bugungi kunda bolalar orasida tarbiyasi og'ir bolalar yo'q deb ayta olamizmi? Tarbiyasi og'ir bolalarning yurish-turishida qanday o'ziga xos xususiyatlar bor, ular yurish-turishdagi qaysi belgilari bilan boshqa bolalardan farq qiladi.

Pedagogikada bu masalani o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Biror bolaning tarbiyasi og'irmi yoki bunday emasmi haqiqatda mulohaza yuritish uchun asosan bo'ladigan belgi uning pedagogik ta'sirining umumiy vositalarini tan

olmasligidir. Bola tarbiyachining oddiy taklif, talablariga quloq solmaydi. O`jarlik qiladi.

Kichik maktab yoshidagi tarbiyasi og`ir bolaning tengdoshlari bilan munosabatlarining yaxshi emasligi, bolalar bilan tez-tez janjanlashib turishi yana bir muhim belgidir. Bu narsa boshqa bolalar uchun yoqimsiz qiliqlar, bolalar o`yinlariga halaqit beradi, qurgan uychalarni buzadi urushqoqlikda, yurish-turish qoidalarini buzishda namoyon bo`ladi. Boshqa hollarda tarbiyasi og`ir bolalar tengdoshlari bilan gaplashmaydilar, umumiy o`yinlarga qatnashmaydilar, yakka holda o`ynashni afzal ko`radilar. Hech narsa qilmay u yoki bu faoliyatda qatnashish haqidagi taklifga parvo qilmaydilar. Odatda tengdoshlari bunday bolani sezmaslikka oladilar, bu esa u bolaning yolg`izlik to`yg`usini chuqurlashtiradi. Ana shu ikkita asosiy belgini kichik yoshdagi bolalarida kuzatish mumkin.

Bola tarbiyaning og`irlik jihatlari asta-sekin to`planib boradi. Fe`l-atvordagi salbiy belgilar va bola shaxsining xususiyatlari hali tarkib topmagan bo`ladi, ular hali barqaror emas, avvaliga bolalar uchun xos bo`lgan yurish-turishdagi kamchiliklarini eslatadi, erkatoylik, o`jarlik, urushqoqlik, jahldorlik va boshqalar, lekin bunday hol tez-tez takrorlanib turadi. Keyinchalik ular yurish-turishning oddiy shakliga aynalib, fe`l-atvorning barqaror belgilariga aylanib qolishi mumkin.

Bolada tarbiya og`irligining namoyon bo`lishi va mustahkamlanishiga olib keluvchi sabablar. Tarbiya og`irligining namoyon bo`lishiga olib keluvchi sabablar. Tarbiyasi og`ir bolalarning xususiyatlarini o`rganish sabablarining uchta guruhini ajratish imkonini beradi.

Birinchi guruh - yosh bola rivojlanishining normalariga muvofiq kelmasligi, yurish-turush va muomala usullarining shakllanmaganligi. Bu esa tarbiyasi og`ir bolaning tengdoshlari bilan aloqa bog`lay olmasligi, eplay olmaydigan faoliyatga kirisha olmasligiga va hakoazolarga sabab bo`ladi.

Tarbiyasi ogir bola tegishli bilimlarga hamda yurish-turishning ijtimoiy jihatdan mustahkamlangan ko`nikmalari, usullarini bilmaganligi sababli bolalar bilan aloqa o`rnatishda o`z usullarini izlaydi, bu esa nizolar kelib chiqaradi,

o`yinchoqlarni tortib oladi, hammaga tegajoqlik qiladi, bolalar yasagan narsalarni buzadi, mashg`ulotlarda zerikadi qo`shnisiga halaqit beradi.

Sabablarning ikkinchi guruhi.

Kattalarning bolaga, uning yurish-turishiga noto`g`ri munosabati bilan bog`liq muomala, erkalash, mehrning yetarli emasligi bola yurish-turishiga talabning yo`qligi, uning nazoratsiz qolganligi, o`z erkiga qo`yib qo`yilganligi shular jumlasidandir. Kattalarning talablaridagi muvofiqsizlik yurish turushga nisbatan bola uchun rag`batlantiruvchi rolni o`ynamaydigan, shu sababli u qabul qilmaydigan va bajarmaydigan qat`iy va ortiqcha talablar ham shu jumlagi kiradi. Bu holatlarda kattalarning obrusi yo`qoladi, u bolaning yurish-turishiga ijobiy ta`sir ko`rsatmaydi. Bola esa yurish-turish yo`lini ham mustaqil tanlay olmaydi. Kattalar bilan kelishmovchiliklar, salbiy tusdagi boshqa hollar ana shundan kelib chiqadi.

Sabablarning uchinchi guruxi.

Mijoz bilan fe`l-atvor xususiyatlari nisbatidagi o`ziga xos jihatlardadir. Asab sistemasi barqaror bo`lmagan bolalar ko`pincha tarbiyadagi xatolar natijasida o`zini bosolmasligi, jahldorlik singari xususiyatlarga ega bo`lib qoladilar, bu narsa tengdoshlari kattalar bilan nizolarga olib keladi.

Asab sistemasi zaif bo`lgan bolalar esa, aksincha tengdoshlaridan o`zlarini chetga oladilar, muomalada bo`lmaslikka intiladilar, faoliyatlarida muvoffaqiyatsizlikdan kurashadilar, bu esa tortinchoqlikka yakkalanib qolishga olib keladi.

Bolalar bilan ishlash tajribasi bu sabablarning bir-biri bilan bog`liqligini ko`rsatadi. Tarbiyasi og`ir bolalar bilan tarbiyaviy ishni muvaffaqiyatli olib borish shartlari.

Tarbiyasi og`ir bolalar bilan tarbiyaviy ishni muvaffaqiyatli olib borish uchun quyidagi bir qator shartlarga rioya qilish kerak bo`ladi.

Tarbiyasi qiyin bo`lib qolganligining sabablarini bilish oilada bolaga munosabatlarining xususiyatlarini, uning tarbiyasidagi xususiyatlarni o`rganish,

aniqlash bilan bolani faoliyatida kuzatish, uning tengdahlari orasidagi yurish-turishni kuzatish yo`li bilan bu sabablarni aniqlay olish.

Bolani, uning asab sistemasi xususiyatlarini, uning shaxsidagi kuchli va zaif tomonlari, undagi qiziqishlar, mayillar bilim va ko`nikmalarni berish.

Tarbiyasi og`ir bolaga xayrixohlik bilan munosabatda bo`lish, pedagogning bola bilan e`tiborli, ishonch ohangidagi muomalada bo`lish.

Tarbiyasi og`ir bola shaxsining xususiyatlarini muvofiq ular bilan tarbiyaviy ishning yo`nalishlarini mazmunini va to`g`ri usullarini tanlash.

Tarbiyasi og`ir bola tarbiyasining yo`nalishi va mazmuni bolalarning butun guruhi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlardan farq qilmaydi. Ammo pedagog bolaning asoslash sohasining shakllantirishga ta`sir qiladigan va bola egallagan aniq bilimlar hamda ko`nikmalarni bilib olish muhimdir. Faoliyat bola tarbiyasining yetakchi vositasi deb bilinganligi sababli unda teng hukumli asosda bolalarning umumiy faoliyatiga o`yin, konstruksiyalash, mehnat, muomala, mashg`ulotlarning har xil turlariga qo`shilish imkonini beradigan zarur bilim va ko`nikmalarni shakllantirish muhimdir. O`zini tutish ko`nikmasini va bolalarga ijobiy munosabatda bo`lishni shakllantirishga alohida e`tibor beriladi. Pedagog ishning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyasi og`ir bolani qayta tarbiyalash, ya`ni unda ko`nikmalarning yangi guruhini, yangi munosabatlari sistemasini o`zgartirish talab etiladi.

Bu ishda usullarning bir necha guruhga ajratiladi.

Asoslash sohasini qayta qurish usullari. Usullarning bu guruhida yakka tartibda xayrixohlik bilan o`tkaziladigan suhbat samaralidir. Bu suhbatda bola yurish-turishidagi ayrim jihatlar, uning hatti-harakatlarining sabablari hamda o`zini va boshqa bolalar uchun oqibatlarini tahlil qilinadi, ularga baho beriladi, yurish-turishning bola egallashi kerak bo`lgan to`g`ri usullari ko`rsatiladi. Buning uchun bolalar adabiyoti asarlarini o`qishdan foydalaniladi, qahramonlarning yurish-turishlari bilan taqqoslanadi, qahramon tushib qolgan vaziyatda yurish-turish usullari belgilanadi. Asoslash sohasini qayta qurish usullari orasida salbiy va ijobiy yurish-turish oqibatlarini tahlil qilish ham foydalaniladi. Pedagog bolaning hatti-

harakatini uning bilimlariga tayanib tahlil qiladi, bolaning yurish-turishiga to'g'ri baho berishga o'rgatadi, u hatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra bilishni hamda shu asosda tengdoshlari yurish-turishning o'ziga xos yo'lini belgilay olishni shakllantiradi.

Salbiy yurish-turishning oldini olish va ijobiy yurish-turishni rag'batlantirish usullari. Bola o'z yurish-turishida asoslanadigan u yoki bu qoidalarini eslatib turish, barcha bolalar va tarbiyasi qiyin bola bu qoidalarni esda tutib, bajarishga tayyor ekanliklariga ishonch bildirish ana shu usullar jumlasiga kiradi. Tarbiyasi og'ir bolada ishonch tuyg'usini o'z yutug'idan quvonch tuyg'usini keltirib chiqaradigan rag'batlantirish usullari, shuningdek jazo usullari shu guruhga kiradi. Bola qoidani buzsa, bolalarni xafa qilsa, biror ishni mumkin emasligini bilgani va tushungani holda shu ishni qilsa, jazodan foydalaniladi. Jazoni gudak anglab yetishi va ta'sirlanishi kerak, tarbiyasi og'ir bola jamoaning u qilgan ishga salbiy munosabatidan istirob chekishiga erishish kerak. Rag'batlantirish va jazo turlari bolaning xususiyatlariga muvofiqlashtiriladi.

Bolaning jamoasi bilan aloqasini kupaytirishga qaratilgan usullar. Bolaning irodaviy kuch-g'ayratlariga, uning yutuqlariga jamoa ishtirokida ijobiy baho berish, tarbiyasi og'ir bola e'tiborini ijobiy jamoatchilik fikriga jalb qilish, masalan, jamoa e'tiborini tortinchoq bolaning butun jamoa uchun ahamiyatli yutuqlarga qaralish, tarbiyasi og'ir bolani bilimlari va ko'nikmalarini hisobga olgan holda jamoa faoliyatiga jalb qilish, bola e'tiborini qiziqarli va maroqli ishga qaratish shu jumlagga kiradi. Bola his-tuyg'usiga, uning ijobiy tuyg'ularining ifodalanishiga kattalar va bolalar jamoasi talablariga ijobiy munosabatiga tayanish, salbiy hatti-harakatlardan uyalish, to'g'ri yo'l tutish istagi va shunga intilish o'z ishlariga ishonch usullarining barcha guruxidan foydalanishda umumiy ahamiyatga ega. Tarbiyasi og'ir bola shaxsining salbiy jihatlarini bartaraf etishga ishonch, ishni uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'ra olish, oila a'zolarini o'ziga ittifoqchi qilib olish mohir pedagog faoliyatiga xos xususiyat.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga joriy etishning birinchi bosqichi tahlili keng ko'lamdagi ishlar bajarilganligidan dalolat beradi. Ammo, xolisona

baho berganda amalga oshirgan ishlarimiz bugungi kun talablariga tuluq javob bermaydi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra ta'lim sohasidagi o'zgarishlarning yuzakiligi, ta'lim — tarbiya jarayonida faollashtirish omillari, samarali pedagogik texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmayotganligi, yoshlarning o'qishga bo'lgan munosabati kabilar haqida yorqin taassurot hosil qilish mumkin.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan har bir o'quv predmetini o'rganishdan maqsad, vazifalari, mazmuni va o'rganish tartibini aniq belgilab olish zaruriyati kelib chiqadi.

O'quvchilarining o'zlashtirishi, qizshqishi, individual xususiyatlari va shart—sharoitini hisobga olib hamda chet el tajribalariga tayanish lozim.

Hozirgi vaqtda yurtimizda yoshlarda demokratik tafakkurni rivojlantirish jarayoni xalqimizning asrlar davomida takomillashib kelgan qadriyatlari hamda ilg'or umumbashariy qadriyatlar asosida amalga oshirilmoqda.

Insonning milliy madaniyat muhitida o'zini erkin his qilishi turlicha bo'lgani kabi, umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish va o'zlashtirishga moyilligi ham turlichadir. Bu jihatni yoshlarda demokratik tafakkurni rivojlantirish jarayonida hisobga olish zarur. Shaxs ma'naviy dunyosining individual rivojlanish tarixi, u o'zlashtirgan qadriyatlar tizimining umuminsoniy qadriyatlarga mosligi demokratik tafakkurga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish demokratik qadriyatlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bunda milliy standart va andozalarga asoslangan xususiyatlarni sun'iy ravishda saqlab qolishga intilish emas, ularning ijobiy jihatlarini saralab, umuminsoniy mohiyatga ega bo'lgan demokratik qadriyatlar tizimiga singdirish jarayonining muvaffaqiyatli xar bir shaxs va hamda millatning o'zligini anglashi va namayon qilishiga bog'liq bo'ladi.

Demokratik tamoyillar yaratadigan qadriyatlar inson tabiatiga mos, rivojlanish bosqichlariga monandligi tufayli yoshlarda demokratik tafakkur tarzining yuksalishiga ko'maklashadi. Faqat har bir shaxs o'z ijtimoiylashuvi jarayonida ularning afzalliklarini chuqur his etishi, ongli ravishda ularni o'z qadriyatlari tizimiga qo'shib, demokratik qadriyatlar beradigan imkoniyatlardan

foydalanish uchun faollik ko'rsatishi zarur. Ana shu "ichki mexanizm" harakatga kelgandagina demokratik tamoyillarga amal qilish ko'nikmalari eski ko'nikmalarni mag'lubiyatga uchratadi, ularni ijtimoiy va individual ong orasidan siqib chiqaradi.

Globallashev sharoitida jamiyatni demokratlashtirish jarayonlari shaxs erkinliklariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi axborot vositalari, ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar infratuzilmasi faoliyati shaxs erkinliklarining tashqi chegaralarini kengaytiradi, shu bilan birga, jamiyatni modernizatsiyalash imkoniyatlarini oshiradi. Albatta, bu jarayonlar oshkora yoki ko'zga ochiq tashlanmaydigan kurash, vujudga kelayotgan ziddiyatlarni yengish natijasida ro'yobga chiqadi.

Ziddiyatlarni hal qilish jarayoni vaziyatni o'z ehtiyojlariga qarab o'zgartirish, shaxs va guruxlarning birlashishiga sabab bo'ladi. Shu tariqa shaxs erkinliklari chegarasi kengayib boradi. Barcha fuqarolar shunday harakat qilsa, jamiyatda inson erkinligini ta'minlash uchun kurash ko'nikmasi shakllanadi. Bu borada erkinliklar axloqiy, madaniy muloqot me'yorlari bilan cheklanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Obyektiv ahamiyatga ega va shaxs faolligi bilan bog'liq subyektiv jarayonlarning uyg'unlikdagi ta'siri jamiyatni ruhiy sog'lomlashtirishga beqiyos xizmat qiladi. Natijada axloqsizlik, loqaydlik, boqimandalik, tushkunlik, kelajakka ishonchsizlik alomatlari yo'qola boshlaydi.

Hozirgi davrda mafkuraviy kurash o'ta murakkablashib, alohida davlatlar chegaralaridan chiqib, eng dolzarb umuminsoniy muammolardan biriga aylanmoqda. Uning shakllari, usul va vositalari o'zgarib, takomillashib bormoqda. Bunday vaziyatda turli tahdid va ta'sirlarga faqat yoshlarning ongini mustahkam egallagan kuchli g'oya, demokratik tafakkur asosida doimo hushyor va ogoh bo'lib qarshi turish mumkin. Ayniqsa, g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish tamoyiliga amal qilgan holda, ma'naviy – mafkuraviy ishlarni uzluksiz amalga oshirish katta ahamiyatga ega.

2-BOB. AXLOQIY TARBIYANING MAVJUD METODLARINI

TAKOMILLASHTIRISHGA YANGICHA YONDOSHUVLARDAN FOYDALANISH YOLLARI

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim jarayonida axloqiy tarbiya berish yollari

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf bolalarni axloqiy tarbiyalash dars jarayoni, sinfdan va maktabdan tashqari turli-tuman ishlarda olib boriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari odob va odobsizlik haqida tushuncha oladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tarbiya tushunchalarni darsda “Odobnoma”, “O'qish”, “Musiqqa”, “Konstitutsiya asoslari” “Tasviriy sa'nat” fanlari orqali oilada, bog'chada uzluksizlik bilan shakllantirilib, rivojlantirilib boriladi. Axloqiy tarbiya yoshi va o'quvchining to'g'ri yo'nalish olishi uchun xalq qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muxitni (oilada, o'rtoqlar va do'stlar muxiti) ham hisobga olganda shaxsning butun xayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo'l va usuldari o'quvchilarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda aloxida xususiyatga ega. Ushbu yo'llarni ko'rib chiqaylik. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: inson xayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlarini to'g'risida keng tasavvur beradi.

Axloqiy tasavvurlar, qarash, muloqaza, baxoni berishni shakllantirishga va shu asosda axloqiy e'tiqodni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi: o'quvchilarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushoqada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi;

- turli manbalardan axloq to'g'risida olingan bilimlarni to'g'rilaydi;
- shaxsning o'zini axloqiy tarbiyalashga yordam beradi.

Axloqiy bilim asosan axloq to'g'risidagi sushbatlar, ma'ruzalar, mavzuiy kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, o'quvchilar konferensiyasi va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Axloqiy bilim berishni tashkil qilishda o'quvchi-larning yosh xususiyatlarini, ularning shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy me'yorlar

to'g'risidagi xabar dorlik darajasini, axloqiy soshasidagi o'zlashtirgan bilimlarining axloqiy talablari bilan munosabatini xisobga olish zarur.

Axloqiy me'yorlarni tushuntirish axloqiy bilimlarning poydevori bo'lib xizmat qiluvchi dunyoqarashga tayanilganda samarali amalga oshiriladi. Masalan, insonning vatanga munosabatining axloqiy mohiyatini ochib beruvchi axloqiy tushunchalar, davlatning ijtimoiy tuzilishi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ijtimoiy va madaniy qadriyat aniq tushunilgan xoldagina o'zlashtirilishi mumkin.

Axloqiy bilim axloq soxasidagi bilimning etik tasvirlari bilan qo'shilib ketgandagina eng yuqori samaraga erishiladi.

SHaxsning axloqiy rivojlanishi axloqiy extiyojlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi: mexnatga, muloqotga, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishga, bilish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalarga extiyoj seziladi. Bu extiyojlar o'quvchilar faoliyati va munosabatlarining real tajribasida rivojlanadi. Ko'p qirrali faoliyat jarayonida xatti-xarakatning ijtimoiy foydali ko'nikmalari, axloqiy odatlar, barcha axloqiy takror munosabatlar shakllanadi.

Axloqiy odatlarni tarbiyalashda o'quv yurtining umumiy muxiti katta axamiyatga ega. An'analar, jamoa qonunlari bilan qo'llab-quvvatlanayotgan fe'l-atvorning shakllanish usullari o'quvchilar tomonidan yengil o'zlashtiriladi Fe'l-atvor tajribasini tashkil qilish asosan barqaror ijobiy ta'sir vositalarini yaratishdadir.

Axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish insonning bu me'yorlariga emotsional munosabati bilan boydi. Axloqiy me'yorni ma'lum ma'noda u yoki bu xatti-xarakatni keltirib chiqarishga undovchi sabablar xam belgilaydi.

Axloqiy tuyg'u, axloqiy iztirob va axloqiy munosabatlar qat'iy shaxsiy ma'naviy qiyofaga ega. Ular insonni oliyjanob xarakat va niyatlardan qoniqtiradi, axloqiy me'yorlarni buzganlarida vijdon azobiga soladi.

Bolalik yoshi tuyg'ularning rang-barangligiga muxtoj va tarbiyachining vazifasi boladagi tuyg'ular ob'ektiga ijtimoiy zarur yo'nalish bera bilishdir.

Psixologlarning aniqlashlaricha, kichik maktab yoshi axloqiy talab va me'yorlarni o'zlashtirishga moyilligining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bu shaxs rivojlanishiga o'z vaqtida axloqiy poydevor qo'yish imkonini beradi. Kichik yoshda shaxsning axloqiy rivojlanishini belgilovchi tarbiyaning mohiyati bolaning xissiy xozir javobligiga tayanuvchi insonparvarlik munosabat va o'zaro munosabatlarini shakllantirishdan iborat. O'smirlik yoshida yaqin atrof muxitini o'zlashtirishda muayyan tajriba paydo bo'ladi, tengdoshlar bilan barqaror aloqalar o'rnatiladi, o'z-o'zini anglash, xususiy shaxsini tasdiqlashga extiyoj kuchayadi. O'smir atrofda kishilar namunasiga ergashadi, ideal axtarish, o'z mavqsini belgilash vositasini tanlashga intiladi.

O'z-o'zini anglashni rivojlantirish, o'z o'rnini topish extiyoji o'spirin uchun xarakterli xususiyatdir. Bu extiyoj inson shaxsiga qiziqish, insonlarning ishlariga, ularning asoslangan doirasiga taxliliy yondashish tuyg'ularini shakllantiradi.

O'z-o'zini anglash xissiyoti rivojlanishining ma'lum bosqichida o'spirin xayotda o'z o'rnini topish extiyoji paydo bo'ladi. Bu extiyoj shaxsning ijtimoiylanuvchi jarayoni, ilgari xayotiy tajribasi, ruxiy va jismoniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari qanday o'tishiga bog'liq ravishda nixoyatda qarama-qarshilikda namoyon bo'ladi.

O'z mavqsini belgilashga intilish o'spirinlik vaqtida tez-tez namoyon bo'lib turadigan faol mustaqillikning o'sishi bilan qo'shilib ketadi. Xozirgi o'quvchilarning intellektual rivojlanishi ayrim xollarda eng avvalo atrofda odamlar bilan o'zaro munosabat va o'zaro ta'sirda oliy ma'naviy tuyg'u va axloqiy xatti-xarakat tajribasidan o'zib ketadi.

Usmirlik va o'spirinlik yoshi tarbiya uchun qiyin davr xisoblanadi, xolbuki, agar tarbiyachi o'quvchini, oilasini, uning rivojlanishida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning xarakterini bilsa, bu qiyinchiliklarning oldi olinishi mumkin.

Maktab o'smirni oilaviy xayotga tayyorlashi lozim. Mana shunday tayyorlashning muxim vositalaridan biri yaxshi tashkil etilgan tarbiyadir. Jinsiy tarbiya axloqiy tarbiyaning elementidir. Uni to'g'ri amalga oshirish shaxsning garmonik rivojlanishi, uning axloqiy sog'lomligi uchun katta axamiyatga ega.

Bundan tashqari axloqiy tarbiya berishda xalq pedagogikasining o'rnini beqiyos— xalq pedagogikasidagi xalq og'zaki ijodi (topishmoq, rivoyat, xikoya, ertak, maqol, masal), xalq yozma ijodi (yozma manbalar — dostonlar), xalq —amaliy san'ati (kulolchilik, naqqoshlik, zardo'zlik, zargarlik va b.) alloma, donishmand va buyuk mutafakkirlar ma'naviy, ilmiy, ma'rifiy ijodi misol bo'ladi. Ushbu mavzuda faqat o'tmishning ijobiy tomoniga, ya'ni xalqimizning o'tmishda asrlar davomida yaratilib kelingan progressiv ijobiy faoliyati natijalariga e'tibor berar ekanmiz, bunda asosan xalqimizning o'zligini anglashda bevosita o'tmish ma'naviy merosiga – madaniyatiga jahon sivilizatsiyasidan o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan madaniy munosabatlariga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Madaniyat – bu voqelik, ob'ektivlik, jamiyatning ishlab chiqarish jarayonining ijtimoiy va ma'naviy xayoti soxasida insonlarning qo'lga kiritgan mehnat faoliyatlari natijalaridir. Madaniyat ikkita – katta soxaga: ma'naviy va moddiy madaniyatda bo'linadi.

Agar moddiy – ishlab chiqarishda va moddiy ne'matlarni iste'mol qilishda insonning ijtimoiy – biologik mavjudod (istemollik) sifatida mohiyati namoyon bo'lsa, ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, ulardan foydalanishda ma'naviy faoliyatida insonning ijtimoiy-madaniy (sotsial) mavjudod sifatidagi mohiyati namoyon bo'ladi.

Ma'naviyatni – teranlikka, mukamallikka, go'zalikka, ezgulikka, yaxshilikka, obodonchilikka, to'kin-sochinlikka, baxt-saodatiga eltuvchi yo'l deb tushunmoq kerak. YA'ni, ma'naviyat – shunchaki shaxs xislatlari, fazilatlar va ular yaratgan barcha ne'matlar majmui bo'lmasdan, balki insoniy – ijobiy xislatlar, fazilatlar va ma'naviy komil insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ma'naviy madaniyat majmuidir.

Ma'naviy madaniyat – bu tarixiy qadriyatlar, ilmu-fan, san'at, adabiyot, falsafa, huquq, ta'lim, tarbiya va diniy, dunyoviylik asosida ishlab chiqilgan ma'naviy ne'matlar majmuidir. Milliy, diniy va dunyoviy urfu-odatlar, an'ana va marosimlar, zamonaviylik va siyosiy, ilmiy, falsafiy, huquqiy-axloqiy, etika, estetik va diniy qarashlar, g'oyalar, normalar, ommaviy axborot va shunga

o'xshash soxalarning aql, qalb, ong va tafakkur maxsuli natijalaridir. Qadriyatlar tarix saboqlarida namoyon bo'lguvchidir.

Qadriyat – bu ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotlar maxsuli, voqelik, borliqdagi muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy, madaniy ahamiyatni barcha ob'ekt, sub'ekt (misol: inson, insoniyat, tinchlik, erkinlik, do'stlik, go'zallik, yaxshilik, madaniy, moddiy va ma'naviy meros, urf-odatlar va h.k.) bo'lib, xalqimiz intellektual mentalitetini tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida, ya'ni, qadriyatlar darajasiga ko'tarilishi mumkin bo'lgan turli ijtimoiy, ijobiy soxalar – axloqiy, huquqiy, estetik, ilmiy, diniy, dunyoviy – me'yorlar, normalarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish natijasida turli urf-odatlar, an'ana va marosimlar, yo'nalishlar, ishlab chiqarilgan maxsulotlar, xalq ommaviy harakati, jamiyatda progressiv rol o'ynab, takrorlanib, zamonaviylashib, zamonga muvofiqlashib boradigan voqea, hodisa natijalari ma'naviy qadriyatlardir.

Ma'naviy qadriyatlar – ma'anviy e'tiqodni vujudga keltiradi, e'tiqod esa irodani mustahkamlaydi. Demak, e'tiqod ma'naviyatning ustuni, iroda esa e'tiqodning tarkibiy qismini tashkil etadi va ma'naviyat mustahkam manbaiga va asosiy yo'nalishiga ega bo'ladi. Ma'naviy yo'nalishlarning xarakteriga muvofiq, ular uch guruxga:

- milliy ma'naviyat;
- mintaqaviy (regional) ma'naviyatga;
- umuminsoniy ma'naviyatga bo'linadi.

Milliy ma'naviyat – har bir ham mamlakat, davlatning ma'naviy merosi, kuch-qudrati, kelajak ravnaqidir, o'tmishi va uning jahon sivilizatsiyasida xalqning, millatning o'rnini belgilab beruvchi, kelajak avlodga namuna bo'lishga layoqatli ma'naviy sifatlari, ma'naviy salohiyati – ijtimoiy, siyosiy, **axloqiy**, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, mafkuraviy, maishiy faoliyati majmuasidir, ma'naviyatning madaniylashgan merosidir. Bu esa bevosita umumbashariy ma'naviy madaniyatning ajralmas bir qismidir. SHu sababli milliy ma'naviyatimiz milliy istiqloq mafkuramizning asosiy negizi hisoblanadi va o'tmishda kimligimizni bilishga, o'zligimizni anglashga manbaviy vosita hisoblandi.

Mustaqillik tufayli, biz bu milliy ma'naviyatimizni tiklashga, o'rganishga, uni yanada jahon sivilizatsiyasining tarkibiy-ajralmas qismida mustahkam bo'lib qolishga imkoniyat yaratildi. O'tmishga munosabat aniq yo'nalishga ega bo'ldi.

O'zligimizni bilish uchun o'tmishga bo'lgan munosabat masalasida shuni ta'kidlash lozimki, dastlab xalqning o'zi o'tmishiga bo'lgan munosabati, davlati, davlat siyosatida o'tmishga bo'lgan munosabatda eng muhimi davlat boshlig'ining o'z xalqi, o'z davlati o'tmishiga bo'lgan munosabati alohida o'ringa, muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayonlarga ijtimoiy-siyosiy tizim ham alohida rol va ahamiyatga egadir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan kundan boshlab nafaqat o'tmishni eslash, balki o'tmishimizni chuqur o'rganishga, "biz kim edik, kimmiz, kim bo'lamiz"ligiga amal qilib, yurt boshimiz o'zining butun diqqat e'tiborini o'tmishimizga, o'tmish ma'naviyatimizni o'rganishga, uni davlat siyosati darajasiga ko'tarishga harakat qildi va amalda qo'llashga, o'tmishimiz "Sobiq Sovet" davrida targ'ibot qilinganidek xalqimiz "savodsiz", "ma'naviyatsiz" bo'lganmi, bo'lmaganmi, uni aniqlashga kirishdi.

Hurmatli Prezidentimiz mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boshlab o'zining har bir chiqishida, ma'ruzalarida, yozgan risola va asarlarida alohida e'tibor berib o'tmishni chuqur o'rganish, tariximizni ob'ektiv taxlil qilishga e'tibor qaratdi va qaratmoqda. O'zligimizni bilishga asosiy manba bo'lgan o'tmish ma'naviy-axloqiy merosimizni chuqur o'rganishda va bu sohada o'zining nazariy xulosasini berdi.

Hurmatli Prezidentimizning bu masalada quyidagi asarlarini ko'rsatish mumkin.

Jumladan, - 1993 yildayoq

- "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" asari. Unda "Ma'naviyat – ona suti ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan kiradi" degan keng mazmunli fikrni bildirgan edi.

- "Bozor munosabatlari va ma'naviyat" 1992 yilda so'zlagan nutqi.

- “Ma’naviyat va ma’rifatni yuksak darajaga qo’taraylik” – 1994 yil 22 sentyabrdagi so’zlagan Oliy Kengashdagi nutqi.

- “Ota bobolarimiz e’tiqodini hurmat qilaylik” 1992 yil 5 apreldagi nutqi.

- YUrtimizning nufuzli zotlari bilan 1993 yil apreldagi “Elni Vatan manfaatli birlashtiradi” mavzuidagi uchrashuvi.

- “Ilmu-fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin” mavzuida O’zbekiston Fanlar Akademiyasi umumiy yig’ilishida 1994 yil 7 iyuldagi ma’ruzasi.

- “Ma’naviy qadriyatlar – milliy iftixorimiz” mavzuidagi Oliy Majlis 1-nchi sessiyasi (XII-chaqiriq)da 1990 yil 24 martdagi nutqi.

- “Bilimdon, ma’naviy yetuk insonlarni yetishtiraylik” XII-chaqiriq Oliy Kengashning XIII sessiyasida 1993 yil 2 sentyabrdagi ma’ruzasi.

- “Ma’naviy meros qudrati” – 1992 yil 31 avgustda “Mustaqilligimiz 1-yilligiga bag’ishlangan tantanada so’zlagan nutqi va boshqa asarlari va nutqlarida o’zligimizni anglashda xurmatli prezidentimiz quyidagi nazariy fikrga keladi. Ya’ni, “O’zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, ulug’ ajdodlarimizdan avlodlarga o’tayotgan ma’naviy merosning kuchliligida, fuqarolarimizning el-yurtga, ona zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g’ururimizda”-degan xulosaga keladi.

Ma’naviyat ona suti, ota namunasi, ajdodlar o’giti bilan singadi va bu fikrni amalda qo’llash maqsadida ma’naviy merosimizni o’rganishlikni davlat siyosati darajasiga ko’tarishga da’vat etadi. Umuman 1994 yil oxirigacha I.A.Karimovning qariyb shu mazmunda 40-dan ziyod kitobi chop etildi. Bu kitoblarda milliy qadriyatlarimizni, ma’naviy merosimizning naqadar salohiyatli ekanligini isbotlab beradi, o’zligimizni bilish uchun, kelajak istiqboli uchun ma’naviy merosimizni o’rganish naqadar zarur ekanligini ta’kidlaydi.

Shu sababli ma’naviyatni rivojlantirish, o’tmishga to’g’ri munosabat o’rnatish maqsadida, uni davlat siyosati darajasiga ko’tarish maqsadida prezidentimiz tashabbusi bilan – 1994 yil 23 aprelda “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazini tuzish to’g’risida”gi va “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini

o'shinish to'g'risida"gi 1996 yil 9 sentyabr farmonlari. "Ma'naviy va ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 27 iyuldagi maxsus qarorlari va boshqa qarorlarida o'z aksini topgan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 1997 yildan boshlab oliy o'quv yurtlarida "Ma'naviyat va ma'rifat asoslari" fani maxsus kursi o'qitila boshlanishi bu sohada muxim ahamiyatga ega bo'ldi. SHu bilan bir qatorda, 1999 yilda "Vijdon erkinligi to'g'risida (yangi taxlilda) qaror qabul qilinishi;

1992 yildayoq Vazirlar Maxkamasi qoshida "Din ishlari bo'yicha" maxsus qumitaning tuzilishi va "Navro'z" bayrami, Ro'za va Qurbon xayitlarini o'tkazishning qayta tiklanishi – tarixiy ahamiyatga ega voqealardir.

YUqoridagi Prezidentimiz farmonlari, hukumatimiz qonun va qarorlari asosida ma'naviyatimizni o'tmishimizning salohiyatli merosi va qadriyatlarini o'rganib, amalda bajarishni davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va uning xalqimiz istak va maqsadlariga muvofiq bo'lishi uchun birqancha tadbirlarning o'tkazilishi o'zligimizni anglashda muxim ma'naviy ahamiyatga ega bo'ldi.

Mana qariyb 10 yilgi Oliy maktablarda ma'naviyatimiz fan sifatidagi – maxsus kurs yosh yoshlarimizga o'qitilib o'tmishimiz ma'naviyati asosida ta'lim-tarbiya berilmoqda.

- Mustaqillikka erishganimizdan beri jahonga mashhur o'tmishda o'tgan buyuk ajdodlarimiz, buyuk siymolarimizning va ulug' shaharlarimiz yubileylari nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida o'tkazilishlari – jumladan, YUNESKO (BMT huzuridagi fan-maorif, madaniyat sohasi bo'yicha tashkilot) hamkorlikda, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxdumi A'zam yubileylari, Mirzo Ulug'bek tavalludining (1994 yili) 600 yilligi, Amir Temur tavalludining (1996 yili) 660 yilligi, hozir esa 670 yil, Qarshi shaxri 2700 yilligi, 1997 yilda Buxoro va Xiva shaharlarining – 2500 yilligi, 1998 yilda Axmad Farg'oniy tavalludining – 1200 yilligi, 1998 yilda Imom al-Buxoriyning tavalludiga – 1225 yil to'lishi, 1999 yilda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi,

“Alpomish” eposining 1000 yilligi, Kamoliddin Bekzodning 545 yilligi – 2000 yilda, 2001 yilda “Avesto”ning 2700 yilligi yubileylari o’tkazildi.

Undan tashqari quyidagi qadimiy shaharlarimizning yubileylari nishonlandi: Jumladan, 2001 yil Termiz shaxrining 2500 yilligi yubileylari nishonlandi, 2006 yilda Qarshi shaxrining 2700 yillik yubileylari, 2007 yilda Samarqand shahrining 2750 yilligi va Marg’ilon shaxrining 2000 yillik yubileylari o’tkazildi.

Bulardan tashqari qanchadan-qancha o’tmishimizga, o’tmish ma’naviyatimizga bog’liq bo’lgan tadbirlar o’tkazildi va o’tkazilmoqda.

Xo’sh, bulardan maqsad va asosiy xulosa nima? u ham bo’lsa:

1. O’tmishimiz nihoyatda ma’naviy meros va qadriyatlarga boy ekanligi, o’zligimiz faxrli, g’ururliligi, milliy g’urur va iftixorli ekanligidan dalolat beradi va uni o’rganish, namuna olish zarur va dolzarbligidan iboratdir.

2. O’tmishimizdan kelajak avlod g’ururlanib, namuna olish, uni zamonaviy yutuqlar bilan boyitib, vatanga sadoqat, vatanparvar, insonparvar, o’z xalqiga, el-yurtiga mehribon komil inson, barkamol avlod ruhida tarbiyalashdan va tarbiyalanishdan iborat.

3. SHu maqsadda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning o’tmishini, ma’naviy merosini mustahkamlash va rivoojlantirish, insonning o’z erkini, imkoniyatlarini namoyon qilib, o’zligini chuqur anglab, “biz kim edik, kimmiz, kim bo’lamiz” kabi falsafiy, aql, qalb, ong, tafakkurga rioya qilib, kelajagimiz buyuk bo’lishligi uchun – ona suti bilan kirgan, ota namunasiga, ajdodlar o’gitiga asoslangan holda yoshlarni ma’naviyatli qilib tarbiyalashdir.

4. Hurmatli Prezidentimizning quyidagi fikriga amal qilish va faoliyat ko’rsatish davr talabidir. I.A.Karimov shunday degan: “Ma’naviyat va ma’rifatni yuksak darajaga ko’taraylik! Umumbashariy va milliy qadriyatlarni uyg’unlashtiraylik, uning negizida milliy ong va demokratik tafakkur tarbiyasini kuchaytiraylik”. (I.Karimov 1994 yil 22 sentyabr Oliy Kengashidagi nutqi).

O’tmishdan, o’tmish ma’naviyatidan, nimalardan va qanday namuna olish mumkin? Jumladan,

- “Avesto” xalqimizning qadimiy yozma muqaddas kitobi. U 21 kitobdan iborat, hozirgi kunda 4-tasi bor.

“O’zinga ravo ko’rmaganni, o’zgaga ravo ko’rma” shioridan;

- Abu Abdulloh Muhammad Imom Buxoriy – hadis ilmi sultoni – 600 ming hadisni yig’ib 100 ming hadisni ajratib 7275 to’g’ri hadislarni to’plagan “AS-sahix” 4-ta kitobida o’z aksini topdi. Islom dunyosida u yagonadir. Undan o’rganishni;

- Movarounnaxrda o’tmishda aslzoda boy zodagonlar, sarkarda, siyosiy arboblari, shahzoda va podshohlar o’z xazinasidan – xalq uchun jamoa binolari – xonakoxlar, miyon saroylar, masjidu-maqbaralar, madrasayu-oliyalar, ko’prik, yo’llar, davolanish uylari, qalandar xonalar qurib qoldirganlar. Ulardan namuna olishni;

Amir Temur, temuriylar davri ma’naviyatidan samarali, zamonga muvofiq foydalanishni Sobiq Sovet davrida ma’naviyat haqida o’tmish ma’naviyati haqida biron davlat arbobi shug’ullanmaganligidan xulosa chiqarishni o’rganmoq, kelajak yoshlarga o’rgatmoq hozirgi davr va istiqbolimiz taraqqiyoti taqqoza etmoqda. O’zbekistonda sog’lom turmush tarzini rivoji bilan uzviy bog’langan bo’lib, sog’lom va barkamol avlod tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shu muhitni, sharoitni insoniylashtirmay turib, yoshlarning jismoniy va ma’naviy ehtiyojlarini o’rganmasdan ularning ongi va tafakkuridagi o’zgarishlarni bilish qiyin. Inson tafakkuri uning yashash tarzi va yashamoq orzularining mushtarakligi orqali shakllanadi.

Islom Karimov sog’lom avlod dasturini tasdiqlashga bag’ishlangan majlis (2000 yil 24 fevral)da so’zlagan nutqida ta’kidlagan ediki, mustaqillik yillarida O’zbekiston bolalari zamonga mos, Vatanimizga, xalqimizga munosib ravishda o’zgarib bormoqda. Biz XXI asrga kirib bormoqdamiz. Bu asrda qaysi davlat qudratli, qaysi xalq kuchli bo’ladi, degan savolga yurtboshimiz «aholisi intellektual nuqtai nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo’lib o’nib o’sadigan davlat»⁹ deb javob beradi. Chunki mustaqil O’zbekistonning barcha

⁹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т., 8., Т., 437-бет.

ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlarining zamirida komil insonni tarbiyalash vazifasi yotadi. XXI asrdan boshlab insoniyat taraqqiyoti intellektual taraqqiyot va intellektual avlod qo'liga o'tadi. «YAngi ming yillikda davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas, intellektual, ya'ni ma'naviy-ma'rifiy boylik hal qiladi»¹⁰.

Bunday ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy ahamiyatga molik bo'lgan vazifa va mas'uliyatni yoshlar ongiga chuqur singdirmay turib erkin, ozod va sog'lom turmush tarzini barpo etib bo'lmas edi. CHunki, har bir yosh avlod kelajagi porloq bo'lgan ijtimoiy tuzumda yashashi uchun oldin uni mafkuraviy, g'oyaviy va estetik jihatdan anglashi, tafakkurini shu ruhda tarbiyalab ma'naviy yuksalish yo'liga qadam tashlash lozim. SHu bois yoshlarning ma'naviy-axloqiy tafakkuriga ta'sir etadigan mafkuraviy omillar tizimini ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi va bu narsa mamlakatimizda amalga oshirila boshlandi.

Mustaqillikdan so'ng yangi zamon, yangi mafkura va yangi ijtimoiy-milliy manfaatlarga mos keluvchi, xalq ma'naviy ehtiyojini ifodalovchi yangicha sog'lom turmush tarzi xususiyatlarini tarbiyalab, voyaga yetkazish zaruriyati paydo bo'ldi. CHunki yoshlar ongini o'zgartirmasdan, uni erkin va ozod Vatan istiqbolini belgilovchi qarashlar bilan qurollantirmasdan turib xalqimiz intellektual salohiyatidan yangi ijtimoiy tuzum hamda vazifalar yo'lida foydalanib bo'lmas edi. SHu boisdan «Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni tanlagan yo'li – kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. YAngicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir»¹¹. Bu sharoitda yoshlardagi tashabbus va g'ayrat, sabr-toqat va matonat, shijoat va ijodkorlik tuyg'ularini qo'llab-quvvatlash, yangi tafakkurni rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega. YUrtimizda uzoq yillar davomida qaror topib kelgan va shakllangan axloqiy-estetik tasavvurlar, ma'naviy ko'nikmalarni yoshlar ruhiyatida tiklash va yangi zamon talablari asosida rivojlantirish katta

¹⁰ Ўша жойда. 438-бет.

¹¹ Миллий истиклол гоъси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т., «Янги аср авлоди», 2001, 168-бет.

ijtimoiy muammoga aylandi. SHu tarzda mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish davridagi «siyosatda ham, ijtimoiy hayotda ham, fanda ham vakuum – bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak»,¹² degan g'oya ilgari surildi. Jamiyat taraqqiyoti va yosh avlod dunyoqarashi, ma'naviyati, sog'lom tafakkurini vayronkor g'oyalar ta'siridan saqlab qolish muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Bunday vazifa o'qituvchi va tarbiyachilarning tajribasi, bilim va malakasi orqaligina bolalarda nafaqat tabiiy fanlarni chuqur o'zlashtirish, shuningdek, tarixni bilish, mamlakat tabiati va jamiyatdagi voqea-hodisalarga insonparvarlik mezonlari orqali munosabatda bo'lish salohiyatlari ham shakllanib, rivojlanib boradi.

I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlariday, yosh bolaning miyasi, ongi nimani o'ziga singdira oladi, nimani qabul qilmaydi? Bolalarga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatish, chuqur anglatish mumkin?

Mana shunga o'xshash ijtimoiy muammolar kun tartibida turgan bir paytda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ishlab chiqilishi mamlakatimiz va xalqimiz tarixida juda katta voqea bo'ldi.

Umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlar orasidan axloq va odob, estetika, psixologiya va san'at, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar asoslarini o'tadigan fanlar yetarli o'rin olmaganligi, darsliklarning bugungi kun talabiga javob bermasligi ko'rsatildi. Eski mafkura asosida yozilgan darsliklar bolalarning yangicha tafakkur egalari bo'lib shakllanishiga to'sqinlik qilardi. SHuning uchun «darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalarini aks etishi»¹³ talab qilindi va keyingi yillarda shunga erishila boshlandi.

Zamonaviy yoshlar buyuk ma'naviyat va sharqona komillik an'alarining vorislaridir. Ularni mustaqillik g'oyalari asosida axloqiy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirish komil inson konsepsiyasida katta ahamiyatga ega.

¹² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 1998, 28-бет.

¹³ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.,6., Т., «Ўзбекистон», 1998, 330-бет.

Umuman olganda, O'zbekistonda axloqiy tarbiyaning yangicha dunyoqarashga asoslangan jihatlari yoshlarning ijtimoiy hayotda zamonaviy bilim va tajribaga ega bo'lishiga, mehnatga va ma'naviy muhitga xolisona yondoshishga, har bir sohada olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini teran anglab yetishiga qaratilgan.

Bizga ma'lumki mamlakatimiz aholisining qariyb 60 % ini yoshlar tashkil qiladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalash eng dolzarb masaladir. Bu jarayonda integratsiya, xususan ma'naviy-axloqiylikda integratsiyaning roli kattaligi ahamiyatlidir. Hozirgi davrda o'quvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllanishida odobnoma fanlarning roli beqiyosdir. O'quvchilarning mustaqil fikrlashi, atrofda bo'layotgan voqea hodisalardan to'g'ri xabardor bo'lishi, ya'ni olamdagi vujudga kelayotgan muammolar va ularning hal etilishi jarayoniga qiziqishi, shuning bilan birga o'zi ham shu tizimli jarayonda ongli ravishda ishtirok etishi ma'naviy barkamol, yetuk shaxs sifatida shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Jahon miqyosidagi umumiy taraqqiyot, odamlar dunyoqarashining o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzot hayotiga ta'siri, davlatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro birlashishga intilishi kuchaymoqda. Ayni vaqtda milliy xususiyatlar va ma'naviy merosni saqlab qolish tamoyillari ham yaqqol sezilmoqda».¹⁴ Bu esa konvergensiya (lotincha converge-yaqinlashish, o'xshashlik)¹⁵ tamoyiliga asoslangan bo'lib, integratsiyalashuv jarayonidir.

Odobnoma fanlardan dars o'tish jarayonida ko'rgazmali qurollar, ta'lim-tarbiyaning ilg'or, ta'sirchan vositalaridan, zamonaviy o'qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Darslarni olib borishda boshlang'ich sinf o'quvchilarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish, mavzuning tushuncha tamoyillarini sharhlashda hayotiy misollar, bugungi dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar tahlilidan, internet va matbuot materiallaridan

¹⁴ Каримов И.А «Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий ислоқболиннинг асосий тамойиллари».Т.: 1995 йил, 59-бет.

¹⁵ Фалсафа Қомусий луғат. Т.: 2004 йил. 201-бет .

keng foydalanish yaxshi samara beradi. Bu jarayon yoshlarning hozirgi davrda mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari kengayotgan bir vaqtda yangicha dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Globallashuv borasida xalqimizda vatanparvarlik, insonparvarlik va o'z-o'zini anglash tuyg'ularini saqlab qolish ham mafkuraviy jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Prezidentimizning 2005 yil 28-dekabr kuni yoshlar shaharchasida o'tkazgan uchrashuvida ham asosiy e'tiborni yoshlarda yangicha dunyoqarashni, tafakkurni shakllantirish hamda yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash eng zaruriy vazifa ekanligiga qaratildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Bizning maqsadimiz mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat».¹⁶

O'quvchilar faolligining oshib borishi, ularda yangicha dunyoqarashning shakllanib borishida ma'naviyat ularni jipslashtiruvchi, taraqqiyotga yo'naltiruvchi, ularning imon-e'tiqodini mustahkam qilib, yirik bunyodkorlik ishlariga safarbar etishda ma'naviyat integrativ omil bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish uzoq tarixiy taraqqiyot bilan uzviylikda hamda bugungi kun jahon xalqlari voqeligi bilan hamohang tarzda amalga oshirilayotganligini alohida ta'kidlamoq zarur. O'quvchilar ongi va tafakkurini zamonaviy g'oyalar bilan qurollantirish eng avvalo, bozor munosabatlariga xos tafakkurni tarbiyalash muhim. O'zining insonparvarlik tamoyillariga boy bo'lgan "o'zbek mentaliteti bozor munosabatlari hamda hozirgi zamon informatsion intellektual texnologiyalarining ustuvorligi davrida yana qanday muhim xususiyatlarga ega bo'lish zarur? O'zgarayotgan zamon va yangilanayotgan makon dunyo xalqlari fe'l-atvori tizimida miya faolligi, sa'y-harakatlarda tezkorlik, topqirlik va ayni chog'da farosat, muammolarni hamkorlik asosida hal etish xususiyatlarini rivoj topishini taqozo etmoqda"¹⁷.

¹⁶Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаравон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Т., «Ўзбекистон», 2000. 20-бет.

¹⁷ М. Бекмурадов, А.Бегматов . Миллий менталитет ва раҳбар маънавияти. Т., 2003йил 9-бет.

SHunday ekan, yosh-yoshlarning milliy mentalitetida keng ko'lamli dunyoqarashni tarbiyalashda ta'lim muassasalari, ijtimoiy institutlar, o'zini-o'zi boshqaruvchi jamoat tashkilotlarining faoliyatini kuchaytirish, har bir sohada integratsiyalashuvning zamonaviyligiga e'tiborni qaratish joizdir.

2.2. Mahallalarda yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda maktab, oila va jamoatchilik hamkorliki.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning 4- bo'lim 6- bandida “Muassasa tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo- sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z ichiga oluvchi vasiylik va ko'zatuvi jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi” deb belgilab berilgan.

O'zaro hamkorlik ishlarini boshlash uchun joylarda o'z tarkibiga mahallalar faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv- tarbiya muassasalarining tajribali hodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning hodimlaridan iborat muofiqlantiruvchi jamoatchilik kengashlari to'zish kerak. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga olgan vazifalardan kelib- chiqib, o'z tarkibida turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarini to'zishi mumkin. Jamoatchilik kengashi ma'lum bir muddatga mo'ljallangan ish dasturini to'zish va uni mahalla yig'inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo'ladi.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ulganda o'quv- tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxonalar va idoralarning ta'lim- tarbiya yo'zasidan olib borayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarni tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kengash tashabbusi bilan biron – bir dolzarb mavzuda favqulotda mahalla yig'inlari, o'quv- tarbiya muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqaruv tadbirlar tashkil qilib o'tkazilishi mumkin.

Kengash o'tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vasitalarida yoritadi. Kengash yosh avlodni axloqiy tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi

tasarrufiga kirgan masala va muammolarni mahalla hududidagi o`quv – tarbiya muassasalari, tashkilot va idoralari ishi rejalashtiriliishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatligini ta`minlaydi. Ushbu kengashlar maktab, tuman, shahar va viloyat miqyosida tashkil qilinishi va kengash a`zolarining barcha davlat va nodavlat tashkilotlariga, jamg`armalariga, jamoatchilik markazlariga va turli tashkilotlarga o`z vakolatlari doirasida murojaat qilishlariga imkoniyat yaratilishi kengash vazifalarini tezkorlik bilan amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Ta`lim va tarbiya sohasiga e`tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, direktiv ko`rsatmalarni samarasi bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o`ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo`lishi zarur.

O`tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlarga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko`rgazmali, ta`sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo`nda, estetik jihatdan keng ko`lamli bo`lishi kerak. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari “Sog`lom avlod uchun”, “Ota- onangga rahmat”, “Odobingga balli”, “Sog` tanda sog`lom aql”, “Mehr chashmasi”, “Qizlar ibosi”, “Bir yigitga qirq hunar ham oz”, “O`g`lim posponim”, “Hayot – ustoz, halqmuallim”, “O`zbekiston Vatanim manim !”, “Milliy burch va mas`uliyat”, “Oila saboqlari”, “Oila etikasi”, “Oila tinch – mahalla tinch”, “Mustaqil hayot bo`sag`asida”, “Askarlik – yigitlik maktabi”, “Oila baxti- Vatan baxti”, “Sportchi oila”, “Oilamiz ohanglari”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Biz kimmiz” kabi tadbirlardan iborat bo`lishi mumkin.

Axloqiy fazilatlar kishining tarbiyali ekanligini ko`rsatadi go`zallikni oshiruvchi qimmatli sifatli bo`lgan axloqiy fazilat barcha inson uchun kerakdir.

Axloqiy fazilatlar - vatanga, tilga urf odatga, tarixga, kelajak munosabatlarda kishilarning qilgan hatti harakatlarida, qoidalariga namoyon bo`ladi.

Milliy o`zlikni anglashva milliy qadriyatkor tushunchasi shu qadar chuqur o`yg`unlashib ketganki, ularni bir – biridan ajratib, olgan holda talqin qilish

nihoyatda qiyin ishdir. Milliy o'zlikni anglash tarkibida milliy qadriyatlar bilan bog'liq na'analar mihim o'rin tutadi. Ular orasida din bilan bog'liq qadriyatlar milliy an'analarimiz ruhiyatimizda ko'zda ko'rinarli o'rin tutadi. Chunki mehr – oqibat, mehr – shavqat, Insoniylik odob va yoshlik, sabr – taqatlilik, ma'naviy barkamollik, ruhiy sog'lomlik singari Milliy va umuminsoniy fazilatlarni ma'naviy ildizlarini oiladan boshlab, bolalar ongiga singdirib borish haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Oilada yoshlarni axloqiy tarbisini shakllantirish ularda fuqarolik burchini, milliy o'zlikni anglash, ota onaga bo'lgan hurmat va qadriyatlarga rioya qilgan holda demokratik jamiyat qurishga o'z hissasini qo'shish hissini tarbiyalashdi. Ular oilada yoshlarni o'z – o'zini kamol toptirishga, o'z imkoniyatlarini ishga solib aniq maqsad bilan yashashga, o'zining huquq va erkinliklarini har tomonlama anglashga amaliy yordam beradi.

Oilada yoshlarni axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismi ya'ni milliy qadriyatlar, urf – odatlar, an'analar vositasida shaxsning o'zligini anglashda adolat halollik va poklik o'z vijdoni, iymoni, e'tiqodi oldida o'zining ichki menligini ifoda etuvchi ma'naviy his – tuyg'ularini shakllantirib tarbiyalash o'zbek oilalariga milliy xususiyatdir.

O'zbek oilalarida qadim – qadimdan milliy qadriyatlarga asoslangan, ibo, hayo, andisha, or - nomus, halol – poklik, mehr muhabbat, mehr – oqibatga amal qiluvchi amal qiluvchi axloq qoidalari milliy xususiyatlarimiz shaklida ongimizga singib, avloddan – avlodga o'tib kelayotgan xarakter xislatlarmizdir. Mustaqilligimiz bizdagi qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarimizda o'z aksini topgan milliy, madaniy, ma'naviy axloqiy fazilatlarimizni o'zida mujassamlashtira olgan o'zligimizni anglash imkonini berdi.

Sharqona urf-odatlarimizning o'zbek xonadonlaridagi noyob xususiyatlaridan biri - qizlar tarbiyasidir. Azal-azaldan qizlar tarbiyasi bilan momo, onalarimiz shug'ullanganligini biz yaxshi bilamiz, biroq, davrlar o'tib, o'zgarib onalarning ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etilishi munosabati bilan oilalardagi ta'lim-tarbiya jarayonida ayrim salbiy xususiyatlar paydo bo'ldi. Lekin aslida ota-ona

munosabatlari o'zida ijtimoiy sog'lom muhit yaratib na'munaii tarbiya maskaniga aylanmog'i juda muhim hisoblanadi.

Qizlarni yoshligidan hayoli, iffatli, har ishda tadbirkor, oila a'zolari va yaqinlariga mehr-oqibatli bo'lib voyaga etishishida oila chinakam tarbiya o'chog'i bo'lib xizmat qiladi.

Demak, milliy qadriyatlar ulug'langan, tarbiya izchil olib borilgan o'zida yetuk farzandlar, korkam xulq egasi bo'lgan o'g'il-qizlar kamolga yetishishi shakshubhasizdir.

O'zbek milliy mentalitetida oilaning buyuk qadriyat ekanligini e'tiborga olib, uning mustahkamligi va sofligini saqlab qolish barchamizning muqaddas burchimizdir va ana shu burchni yosh avlodga ota-ona, keksa avlod jamoatchi tashkilotlar, ziyolilar tomonidan tushuntira olish hozirgi davr talabidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65 va 66-moddalarida ham alohida to'xtalib, ahamiyat berilgani fikrimizga dalil bo'la oladi.

Ma'lumki, jamiyat madaniyati ma'naviy axloqiy qadriyatlarsiz yasha olmaydi. Bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish hamd rivojlantirishdir. Chunki mustaqillik sharofati ila milliy qadriyatlarim tiklanib, dunyoviy va diniy bilimlarga ega bo'lish uchun barcha imkoniyatla eshigi ochildi. Shunday ekan, borada oila, ayollar mahalla maktab, jamoatchilik tashkilotlar hamkorlikda o'z faoliyatlar samaradorligini oshirishlari darkor.

Biz bugungi kunda yoshlar ongiga axloqiy tarbiyani singdirishning mohiyatini dolzarbligini juda yaxshi bilamiz. B, borada onalarimiz oilaning ma'naviy axloqiy ko'zgusi, bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi katta kuch hisoblanadi. Shunday ekan, oila sog'lom, ezgu maqsadlar sari jamiyat taraqqiyotida, talim-tarbiya maskanlari hamkorligida yosh avlod ongi, ruhida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qoymasligi uchun kurashmog'i zarur. Kelajagi buyuk davlat qurishga kirishgan xalqimiz uchun o'z tarixini, fidoyi insonlar hayotini mukammal o'rganishi ular ma'naviyatining, ma'rifatining kuchli bo'lishida asosiy omildir. Demak, yoshlar qalbida mehr-muruwat, himmat, qayg'urish, bir-biriga izzat-ikrom,

ehtirom hislarini tarbiyalashda oila, ota-onalar, ayollar, jamoatchi tashkilotlar ta'siri beqiyosdir. Ya'ni har bir shaxsning ma'naviy kamoloti ijtimoiy muhit, yashash sharoitlari, mehnat va turmush tarzi, boshqalar bilan munosabatda bo'lishi negizida shakllanadi va mustahkamlanadi. Millatning o'zligini anglashi, qadr-qimmat, ahilligi, yurtida tinchlik va osoyishtalikning qaror topishi, ijtimoiy munosabatlarning o'zaro hamkorlik, hamjihatlikka asoslanishi ma'naviyat mezonlari sanaladi. Darhaqiqat, bugungi demokratik sharoitda mustaqillik sharofatini qadrlab, uning mohiyatiga yanada chuqurroq yetmoq uchun oila manfaati jamiyat manfaatiga mos kelsa, ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin. Ya'ni, oilada sog'lom ehtiyojni yo`zaga keltirsak, oila a'zolari rejasi va maqsadi Vatan, xalq kelajagini bunyod etishga xizmat qilishiga aminmiz. Zero, oila urf-odatlarini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi umriboqiy qadriyatlardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Chunki oila ijtimoiy institut sifatida tarixiy davrlar xususiyatlarini o'zida qamrab olganki, bunda har bir shaxs undagi udum, odatlar evaziga ma'naviy, ma'rifiy bilimlarga ega bo'lishi va bu tabiiy ehtiyojga aylanmog'i darkor.

Mustaqillik yillaridan boshlab milliy qadriyatlarni tiklash, uni rivojlantirish millatning o'z-o'zini anglashi, milliy g'ururni shakllantirish, vatanparvarlikni tarbiyalash bilan o`zviy tarzda amalga oshirilmoqda. Shuning uchun bugungi kunda har bir oila o'z muqaddas qadriyatlarini e'zozlab, undan o'rinli foydalansa, bu qutlug` dargoh ajoyib tarbiya maskani bola oladi. Zero, bunday oilalar farzandlarining davr talabiga binoan yurtimiz kelajagi porloq va obod bo'lishiga xizmat qilishiga hech qanday shak-shubha yo'qdir.

O'zbek halqida asrlar davomida shakllangan, avlodan- avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odatlarimizning o'quvchilar tarbiyasida ahamiyati juda beqiyosdir. Masalan har bir kishi salom berish, ota-onani qadrlash, kattalarga hurmat, yoshlarga mehr-shafqat, mehmondo'stlik, chanqagan odamga suv, keksalarga joy berish, qo'l yuvmoqchi bo'lgan kishining qo'liga suv qo'yish, sochiq tutush, bemorlarni borib ko'rish, keksalarga yordam berish kabi urf-odatlarimiz bor. Bola tarbiyasida oilaning o'rnini katta. Har bir oilaning oilaviy

qadriyatlarini, urf-odatlarini axloq va odob qoidalari mavjud. Milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz oilada, keyinchalik esa bu qadriyatlar bog'chada va maktabda o'zluksiz ravishda olib boriladi. O'zbek milliy urf-odatlarimizni kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ongida shakllantirish juda muhimdir.

Chunki insonning ma'lum bir xarakterli inson bo'lib yetishishida yoshlikdagi olingan tarbiya juda muhim rol o'ynaydi. Inson hayotining keyingi davrlaridagi olingan tarbiya esa uning xarakteriga kam ta'sir qiladi.

Hadislarimizda yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqshdir deb bejizga aytilmagan. Bizning yoshlarimiz eng avvalo ma'naviy yetuk bo'lishlari lozim. Bir-birlarini hurmat qilishi ko'cha-kuyda uchraganda albatta salom berishlari kerak. Bular muqaddas hadislarda ham aytilgan:- Salom berib kirmagan odamni ho'zuringizga qo'ymanglar!. Yoshlar, odamlar bir-birlariga nega salom berishlarini tushunib yetishlari kerak. Arabchada "Assalomu alaykum" degan so'z, sizga, oilangizga tinchlik, omonlik, totuvlik tilayman degani. Biz o'qituvchilar iloji boricha o'quvchilarga har bir urf-odatimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni hayotdagi misollar bilan tushuntirsak, ularda qiziqish ortadi. Rivojlangan mamlakatlardan biri Yaponiyada bola maktabga borganda birinchi o'quv yilida faqatgina axloq va odob qoidalari urf-odatlar o'zining milliy qadriyatlarini o'rgatilar ekan.

Bizda ham mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin milliy, tarixiy meroslar, urf-odatlar, qadriyatlarga asoslangan tarbiyaga ehtiyoj tobora sezilmoqda. Chunki shu paytgacha ayrim sabablarga ko'ra ko'r-ko'rona g'arb madaniyatiga sajda qilib o'zimiznikini chetga surib qo'ygan, sal bo'lmasa o'zimizni, o'zligimizni, tilimizni, madaniyatimizni, urf-odatlarimizni unutayotgan, yo'qotayotgan edik. Ana shulardan kelib chiqib maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bugungi kunda o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishda milliylikka asoslangan yangicha g'oyalarni kashf etishi ish faoliyatida mahorat bilan yondashishi lozimdir.

Biz pedagogika fanidan olgan nazariy bilimlarimizni kelajakda amaliyotda qo'llab, o'quvchilar ongiga singdirishda tarbiya jarayonidagi turli metodlardan foydalanib, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni ya'ni o'zbek xalqimizning madaniyati, ota-bobolarimizning axloqiy sifatlarini, go'zal xulqi, rivoyat va xalq

og'zaki ijodiyoti,ertaklardan, xalq pedagogikasi namunalaridan,"Qur'oni karim", "Hadisi Sharif", "Al-Adab al-Mufrad", "Qutadg'u bilig", "Avesto", "Kalila va Dimna", "Qobusnoma", "Odobnoma" kabi qator ilm sarshashmalaridan o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy ongini o'stirib, o'z milliy g'ururlarimizni anglatib tarbiyalasak, albatta O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo'ladi. Buyuk davlatni esa o'z vatanini sevadigan, yuksak madaniyatli, o'z millatidan g'ururlanadigan kishilarsiz tasavvur qilish qiyin.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli mamlakatimiz hayotida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz qayta tiklanmoqda.

O'zbek xalqining milliy urf-odatleri, ayniqsa ma'naviyatimizning asosi bo'lgan insoniy fazilatlar qayta tiklanmoqda. Bizning o'ziga xos sharqona milliy qadriyatlarimizda insoniy fazilatlar asrlar davomida ulug'lanib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bunday qadriyatlarimizdan ota-onaga bo'lgan hurmat, insonlarning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabati, do'stlik, oilada erkak kishiga bo'lgan hurmat, sadoqat, to'g'rilik, ustozga bo'lgan hurmat, kattalarga hurmatda bo'lish, kichiklarga izzatda bo'lish va nochor kishilarga yordam berish kabi ajoyib insoniy fazilatlar ulug'lanib kelmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarining asl mohiyatiga e'tibor bilan qarasak insonparvarlik g'oyalari va bugungi kun hamda kelajak taqdiri haqida qayg'urgan ezgu fikrlarini bayon etgan. Yoshlar ongida milliy qadriyatlarimiz, insoniy fazilatlar, insonparvarlik g'oyalari kabi ezgu fikrlar mujassam bo'lishi kerak.

Insonparvarlik insoniy fazilatlarining ajralmas qismidir, u insonlarni e'zozlashga, qadrlashga, adolatli bo'lishga, saxiy mehnatsevar bo'lishga undaydi.

Insonparvarlik, yakka – yolg'iz faxriylarga, nogironlarga, serfarzand oilalarga, ko'makka muhtoj boshqa fuqorolarga hurmat – e'tibor va xayr – saxovat ko'rsatishi bugungi O'zbekistonda davlat miqyosidagi an'analar safidan mustahkam joy olmoqda.

Yurtboshimiz Islom karimovning ta'kidlashicha:

“Insonparvarlik – bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. shafqatsizlik va zo'rvonlik uning tabiatiga yotdir. Bizning xalqimiz o'zining voqealarga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshidan kechirdi – madaniyat,ilm – fan, o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi,o'zaro nizolar,begonalar asorati alamini tortdi,eng yaxshi o'g'il – qizlaridan judo bo'ldi.Lekin tarixning o'yini ham, omonsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushirolmadi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr,kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlashgandir.

O'qituvchilik faoliyatini eng murakkab tamonlaridan biri ota-onalar bilan umumiy til topa bilish, ularning xurmatiga sazovar bo'lish, hamkorlikda bola tarbiyasi bilan shug'illanishdir. O'qituvchi, sinf rahbari,mehribon tarbiyachidir. Maktabning boshlang'ich sinflaridagi muhim xususiyatlardan biri qadrdon o'qituvchi rahbarligida to'rt yil hamkor, hamdard bo'lib qolishdir. Shu sababdan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ota-onalar jamoasi bilan ishlashi ham o'ziga xos xususiyatga ega.

Yosh ota-onalarda farzandlarini maktabga tayyorlash malakalari yetarli bo'lmaydi shu sababli o'qituvchi „Birinchi sinf o'qituvchisi“, „Yosh ota-onalarga esdalik“larini tavsiya etishi talabga muvofiqdir.

Bu ish shaklidan maqsad ota-onaning maktab oldidagi burchini anglatish,ota-onaning maktab oldidagi pedagog,tarbiyachilikfaoliyatini faollashtirishdir.

Yosh ota-onalar uchun esdalik. Har bir inson farzand ko'rish va uni voyaga etib borishini ko'zlab ish tutayotgan ekan, Ollohga hamdu sanolar aytib,bu buyuk ne'matning qadriga yeta bilishi lozim.Bu ne'mat bolaning ilm maskani-maktabga birinchi qadamidir.

G'ulomiddin „Ta'limi soniy“risolasida:„Ilm demak jon.Ilm demak hayot(tiriklik) demak.Ilm demak madaniyat,din odobiga sabab demak“,deb yozgan edi. Bas, shunday ekan ota-ona birinchi farzandining axloqiy tarbiyalanganlik darajasi me'yorda bo'lishi uchun nimalar qilishi kerak:

1. O'qituvchi muqaddas siymo. U sizning maslahatchingiz, uni ardoqlab, obro'-e'tiborini oshiring.
2. Sinf va maktabjamoasining ta'limiy tarbiyviy tadbirlarda faol qatnashib, taklif va mulohozalaringizni ayting.
3. Bolangizga nima yaxshi, nima yomon ekanligini uqtirib, sharqona rasm-rusum, udum an'analarimizdan uni xabardor qilsangiz, o'qituvchiga ko'makdosh bo'lgan bo'lar edingiz.
4. Bolangizning o'quv ishlariga yordam berib boring. Uyga beriladigan topshiriqlarni bajarishda u hozircha sizning yordamingizga muhtojdir.
5. Bolangizda maktab, sinf, o'qituvchi va o'rtoqlari haqida yaxshi fikr uyg'oting, chunki birinchi sinf o'quvchisini maktab sharoitiga moslashtirish ancha murakkab holatdir.
6. Farzandingizdan kundalik ish faoliyatiga munosabatini ko'zatiib so'rab boring. Bunday suhbatda „yaxshi“, „juda yaxshi“, „marhamat“, rahmat“, „baraka top“ kabi sehrli so'zlarni topib ayting. Nojo'ya harakatlar sodir bo'lgan bo'lsa, „Chakka ish bo'libdi“, „men kutmagan edim“ kabilarni ishlatishni unutmang.
7. Ota-ona maktabning yaqin yordamchisi, ko'makdoshi bo'lishi, o'z farzandining kamolini o'ylab yashashi kerak.

Ota-onalar sinf majlisini tashkil qilish metodikasi

Har bir o'quv yilining boshida o'tkaziladigan ota-onalarning sinf majlisini ilmiy, nazariy, ma'naviy va metodik jihatdan mazmunder tashkil qila bilish, ota-onaning bunday majlislarni orziqib kutib, doimiy qatnashuvchi bo'lishiga zamin hozirlaydi. Bunday majlis o'qituvchidan ko'p bilim va mahorat talab etadi.

Undagi masalalar yo`zasidan tayyorgarlikni bir oy oldin boshlash kerak. Bular:

- Har bir oila a'zosi va uning shart-sharoiti haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish;
- Oila va atrofdagi ijtimoiy munosabat muhitining soz yoki nosozligini aniqlash;
- Har bir o'quvchi shaxsi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish;
- Oilada bolani maktabga tayyorlash tartibi kabilar.

Birinchi majlisni o'tkazishdan oldin o'qituvchining tayyorgarligi:

1. Majlis mavzusi va maqsadini aniqlash;

- 2.Majlis o'tkazadigan joyni jihozlash;
- 3.Majlis o'tkazish metodini tanlash, suhbat, tushuntirish;
- 4.Maktab tarixi va kelajakdagi istiqboli haqida qisqa ma'lumot tayyorlash;
- 5.Donolar bisotidan foydalanish kabilar.

Ma'naviyat darsida o'quvchilarga "Ota-ona ulug' zot" mavzuini yoritishda ota-onani norozi qilganning ahvoli yomon bo'lishini "Ona qarg'ishi" rivoyatini misol qilib gapirib berish mumkin.

"Ona qarg'ishi" rivoyatining qisqacha mazmuni: Bir mushtipar, ko'zi ojiz qolgan onaning bir o'g'li bo'lib, ona o'z o'g'lining qaramog'ida bo'ladi. Kunlardan bir kun o'g'il o'z onasiga shu kungacha xizmat qilganini aytib, onani vaqtincha tashlab, haj qilgani borishni aytadi. Onaizor qanchalik qarshilik qilmasin, o'g'lga yolg'iz tashlab ketmasligini yalinib so'ramasin, o'g'il baribir ona bilan xayrlashib ko'chaga qadam bosayotganda ona: "Iloyim meni yolg'iz tashlab ketganing uchun, borgan joyingda quruq tuhmatga uchragin" — deb alam dardida qarag'ab yuboradi. Bola uyidan ketib, uzoq yo'l yurib, bir qishloqqa yetib keladi, qorong'u tushub qolgani va tunashga joyi bo'lmagani uchun mahaliy masjidga kirib nomoz o'qish va tonggacha u yerda qolishni rejalashtiradi. Shu kecha qishloqdagi bir xonadonga o'g'ri tushadi. Uy egalari uyg'onib ketadi va o'g'ri qo'lidagi barcha narsalarni olib, qochib ketayotib to'g'ri masjidga kirib, o'g'irlangan mollarni namoz o'qib turgan musofir yigitning yoniga qo'yib, o'zi oynadan sakrab qochib qoladi. Xonadon egalari o'g'rini ortidan quvlab kelayotgani, uning masjidga kirganini ko'radilar va borib qarasalar, o'g'irlangan molni namoz o'qiyotgan yigit yonidan topadi.Yigitni ushlab, do'pposlab, ertasiga to'g'ri qozining oldiga olib kelishadi. Xonadon egasi musofir yigitni o'g'rilik qilib, namoz o'qiyotgandan shikoyat qiladi, unga qattik jazo berishni talab qiladi. Qozi shunday xulosa chiqaradi: o'g'rilik qilgani uchun yigitning 2 qo'lini kestiradi, yugurib masjidga kirgani uchun 2 oyog'ini xam kesadilar. Yigitning tana qismi qoladi. SHunda qozi xalqqa murojaat qilib: "Birovning uyiga og'irlikka tushganning axvolini ko'rib quyinglara-a" — deydi. Musofir yigit esa, qozining gapiga qoshimcha qilib:

"O`g`rilik qilganning emas, onani norozi qilib, uning qarg`ishiga uchragan odamning axvolini ko`rib qo`yinglar"—deb, olamdan o`tadi,

Rivoyat mazmunini yoshlarga tushuntirgandan so`ng ularni ikki guruxga bo`lib munozara ham qilish mumkin. Bu bilan "Guruh munozarasi" va kichik guruhlarda ishlash usulidan foydalaniladi. Agar, ushbu rivoyatni ukuvchilarga obrazlarni rollarga bulib, uzlarini saxnada jonli ijro ettirsalar, unda "Rolli, saxna kurinishi" usulidan foydalanilgan buladi.

Ushbu rivoyatning mazmunini xar bir ukuvchilarda uz fikrlarini birin-ketin, batafsil surash orkali "Aqliy hujum", "Muayyan holat, vaziyatni urganish", "Nuqtai-nazaring bo`lsin" usullaridan ijobiy foydalaniladi.

Xulosa shuki, kasb-hunar kolleji o`quvchilarida ma`naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda turli tarbiviy tadbirlar usullaridan foidalangan holda tashkil etish, amaliyotda o`zining ijobiy natijasini beradi.

Tarbiya jarayonida o`zbek xalqining milliy-ma`naviy merosiga, an`analariga sharqona milliy qadriyatlarga tayangan holda ish ko`rishni nazarda tutadi.

Axloqiy tarbiyada **izchillik, tizimlilik** - tarbiyaviy ta`sirlarning uyg'unligi va uzluksizligi qoidasi o`quvchilarga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishda izchillikka rioya qilishni, o`quvchiga birdaniga juda ko`p talab qo`ymaslikni, tarbiyada maktab oila, jamoatchilik talabining bir xil bo`lishini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o`quvchilari ongida axloqiy tarbiyani shakllantirishda hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Oilada, ta`lim-tarbiya maskanlarida ijobiy muhit, qat'iy tartib, ayniqsa ta'lim-tarbiya jarayoni har jihatdan mukammal bo`lsa, unda kamol topayotgan avlodlar kelajagi ularning ota-onalari kutganidan ham nurafshon bo'lajak. Mustaqil Vatanimiz istiqboli uchun esa ana shunday barkamol avlod albatta kerak.

«Yosh vatanparvarlar»

Ma`naviy-ma`rifiy jamoatchilik uyushmasining

Nizomi

Bu tashkilot o`quvchi-yoshlari o`rtasida tuziladi. Tashkilotga o`qishga va yaxshi xulqqa ega bo`lgan, o`zini mustayil Vatan farzandi deb hisoblagan, jamoatchilik ishlariga bopshalarga o`rnak bo`la oladigan, Vatanini chin dilidan sevuvchi o`quvchi-yoshlar qabul qilinadilar. Yoshlar tashkiloti o`z ramzlariga ega bo`ladi:

1. Ko`krak nishoni sakkiz qirrali yulduzcha va uning ichki qismida O`zbekiston Respublikasi gerbi bor.
2. Timsoli—O`zbekiston aks ettirilgan xaritaning kichik namunasi. Uning chekkasida «Yosh vatanparvar» yozuvi bor. «Yosh vatanparvar» tashkilotining shiori:
«Elim deb, yurtim deb, yonib yashash kerak!»

Umumiu qoidalar

1. «Yosh vatanparvar» tashkiloti o`quvchilarning ko`ngilli, tarbiyaviy, ma`naviy-ma`rifiy jamoatchilik tashkiloti xisoblanib, ular millatidan kat`iy nazar, O`zbekiston farzandiman degan o`quvchi-yoshlarni ixtiyoriy birlashtiradigan o`z-o`zini boshkdrish tashkilotidir.
2. Tashkilot O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonunlar asosida O`zbekiston Respublikasi yoshlar tashkilotlari, ta`lim muassasalari, jamoatchilik birlashmalari bilan birgalikda o`quvchi-yoshlarni Vatanimizning sodiq, farzandlari etib tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida faoliyat ko`rsatadi.
3. Tashkilotning ish yuritishi O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi qonunida (28-modda) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tashkilotning maqsadi va vazifalari

1. O`quvchi-yoshlarni o`z Vataniga, xalqiga sadoqatdsh qilib tarbiyalash.
2. O`quvchi-yoshlarni ma`naviy-ma`rifiy, ilmiy, jismoniy, ruhiy tomondan kamol toptirish.
3. Xalqiga, milliy, ma`naviy boyliklariga, tarixiy merosiga, mustaqillik g`oyalari va milliy urf-odatlariga sadoqat tuyg`ularini shakllantirish.

4. Axloqan pok, jismonan baquvvat, Vatanga sadoqatli fidoyi inson, tashabbuskor sog'lom avlodni tarbiyalashda o'z-o'zini boshqarish orqali jamiyatga yordam berish.

5. Bilimli, barkamol, madaniyatli uk,uvchi-yoshlarni shakllantirish, ularni oila, mahalla, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatlarini to'la anglaydigan va egallagan bilimlarini hayotga tatbiq eta oladigan shaxs sifatida kamol toptirish borasida jamoatchilik faoliyatini amalga oshirish.

6. Maktab va jamoa mulkini, yurtimiz tabiatini avaylab-asrash, e'zozlash, uning ko'payishiga hissa qo'shish.

Tashkilot a'zolarining burchlari

- Ona-Vatanni sevish;
- Vatanga, mustakillik royalariga sadoqatli bo'lish;
- Milliy urf-odatlariga sadoqatli bo'lish;
- Jonajon tabiatni sevish va asrash;
- Davlat ramzlariga yuksak hurmatda va sadoqatli bo'lish;
- Davlat va jamiyat mulkini asrash;
- Vatan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish;
- Doimo xushmuomala, odobli, xushchaqchaq bo'lish qiyinchiliklarga bardoshli, kamtarin bo'lish;
- Fikri, so'zi va ishi qat'iyatli bo'lishi;
- Ota-onani, qariyalarni, ustozini, dustlarini hurmat qilish;
- O'zidan kichik yoshlarga doimo yordam berish;
- Vatanparvarlik tuyg'ularini doimo ishi va so'z birligi bilan targ'ibot qilish;
- Yon-atrofdagi sodir etilayotgan voqealarga befarq bo'lmaslik.

Tashkilot a'zolari

1. O'quvchilar: «Yosh temuriylar», guruh nomli: «Yosh vatanparvarlar» ning tashkilotiga a'zo bo'ladigan yoshlarning tantanali qasamyodi:

«Yosh vatanparvarlar»ning tashkilotiga a'zo bo'ladigan yoshlarning tantanali qasamyodi:

«Men, «Yosh vatanparvarlar» tashkilotiga a'zo bo'lar ekanman, xalqim, Vatanim va Prezidentimga doimo sadoqatli bo'lishga, mustaqil davlatimizning fidoyi, munosib farzandi bo'ulishga qasamyod qilaman!»

Tashkilot faoliyati

Bu tashkilot belgilangan tartibda ajratiladigan mablag'lar, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari asosida yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy yordamlari, maqsadli badallari hisobiga o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Xalqaro hamkorlik

1. Bu tashkilot O'zbekiston Respublikasining qonunlari, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda berilgan tartibda xalqaro faoliyatni amalga oshirishi mumkin.
2. Xorijiy mamlakatlardagi yoshlarning tashkilotlari bilan hamkorlik, do'stlik aloqalarini o'rnatish.

Boshqaruv faoliyati

1. Tashkilotga sardor saylov yo`li bilan saylanadi.
2. Uning ikki o'rinbosari bo'ladi:
 - a) Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari;
 - b) Tashkiliy va sport ishlari.
3. Quyidagi bulimlar faoliyat ko'rsatadi;
 - Ma'naviyat va ma'rifat;
 - Umumiy tashkiliy ishlar;
 - Qizlar klubi;
 - Shunqorlar klubi;
 - Sport;
 - O'lkashunoslik va ekologiya;
 - Milliy qadriyatlar va urf-odatlar.

Tashkilot boshqaruvi a'zolari umumiy ochiq, ovoz berish yo`li bilan saylanadilar. Tashkilotning boshqaruv hay'ati har chorakda bir marotaba umumiy majlis oldida hisobot beradilar.

Tashkilot a'zolari:

- o`zaro munosabatlardan;
- o`qish va mehnat jarayonidan;
- rahbarlikdan;
- uyushqoqlikdan;
- ongli intizomdan;
- oqilona va foydali faoliyatdan;
- o`z qadr-qimmatini saqlashdan;
- jamoa bilan faxrlanishdan;
- himoyalanganlikdan qoniqish hosil qilishlari kerak.

Tashkilot a'zolariga:

- ixtiyoriylik;
- demokratik faoliyat;
- so`z erkinligi;
- tashabbuskorlik;
- faollik;
- ijodiy faoliyat ko`rsatishlari uchun imkoniyat yaratilishi kerak.

Tashkilot katta kuchdir. O`quvchilarning xilma-xil faoliyati xuddi shu jamoada to`planadi. Jamoada o`quvchi ma`naviy -ijtimoiy jihatdan har tomonlama chiniqish maktabini o`taydi.

Irodasi zaif yoshlar va ularni himoya qilish

(“Giyohvandlik ustidan sud” ssenariyasi asosida rolli o`yin)

«Sog`lom xalq, sog`lom millatgina buyuk ishlarga qodirdir». SHu bois bugungi yoshlarning ham ma`nan, ham jisman salomatligi muhim masala hisoblanadi. Hozirgi zamon global muammolari sirasiga irodasi zaif yoshlarni o`z domiga tortayotgan aroqxo`rlik, kashandalik va narkomaniya ham mansub bo`layotgani sir emas. Bu illatga qarshi kurashishda huquq tartibot organlari, tibbiyot xodimlari qatorida muallim va tarbiyachilarning ham xizmatlari beqiyos. Negaki, bu illat faqat tibbiy xastalik emas, balki ijtimoiy, huquqiy hamda ma`naviy inqiroz omili hamdir.

1987 yilda Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tomonidan 26 iyun - Narkotik moddalarni noqonuniy ayrboshlash va iste'mol qilishga qarshi kurash Xalqaro kuni deb e'lon qilindi. RIA Novosti axborot agentligining xabariga ko'ra, narkotik iste'mol qilish oqibatida Rossiyada har kuni 80ga yaqin kishi hayotdan ko'z yumayapti. SHuningdek, narkomanlar armiyasi mazkur davlatda 2,5mln. kishini tashkil qilayotgani, yiliga ularning soni 80 ming kishiga ko'payyotgani, iste'molchilarning o'rtacha yoshi 18dan 39 yosh oralig'ida ekanligi ma'lum. Mazkur ma'lumotlar bu illat ko'lamining kengligi, oqibatining ayanchliligi va asosan yoshlarni o'z domiga tortayotganidan dalolat beradi. SHu bois yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun bu illat sabablari va oqibatlari haqida batafsil tushuncha berish juda muhim.

Narkomaniya – bu narkotik va psixotrop moddalarga tobeklik xastaligi bo'lib, huquqiy jihatdan jinoyat, tibbiy jihatdan surunkali xastalik, ijtimoiy-ma'naviy jihatdan axloqiy me'yorlariga zid holat sifatida baholanadi.

Narkomaniyaning paydo bo'lishiga ruhiy zaiflik, jismoniy noqobillik, turli ijtimoiy omillar sabab bo'ladi. Bo'sh vaqtning ko'pligi, oilaviy sharoitning og'irligi, ishsizlik, biror ishga noqobillik xissi, umidsizlik, tushkunlik, muhitning nosog'lomligi va boshqalar narkomaniyaning shakllanishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda ijtimoiy muhofazalangan, moddiy ta'minlangan to'liq oilalarda tarbiya topayotgan farzandlarning ham bu illat domiga tushib qolish hollari kuzatilmoqda. Demak, narkomaniyaning paydo bo'lish sabablari o'zgarmoqda. Ayrim radikal sotsiologlar narkomaniyani mavjud ijtimoiy qadriyatlar, madaniy qarashlar, mafkuraviy tamoyil va turmushning moddiy sharoitiga qarshi “isyon ko'taruvchilar”, qarshi chuquvchilar sifatida baholaydilar. Ana shu qarshiliklarni narkomanlar o'zlarining affekt holatidagi noadekvat harakatlari bilan namoyon qilar ekanlar. Bu esa jamiyat uchun juda xavfli hisoblanadi. SHu bois narkomaniyaga qarshi ochiq va rasmiy kurash birinchi navbatda huquq-tartibot organlari zimmasiga yuklanadi.

BMTning rasmiy ma'lumotiga ko'ra, Rossiyada huquq-tartibot organlari tomonidan mamlakatga kirib kelayotgan narkotik moddalarning 40% foizi ushlanib

qolinar ekan. Har kuni 10kg. heroin musodara qilinar, bu esa 2mln. narkomanning kundalik iste'mol normasi ekan.

Narkomaniya davosi juda qiyin kechadigan dard. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, narkomanlarning o'rtacha umr ko'rishi 6 yilni tashkil qiladi. Narkomanlar o'rta yoshgacha ham yetib bormaydilar, ular dozaning oshib borishidan, turli kasallik va o'z joniga qasd qilish oqibatida hayotdan erta ko'z yumadilar. Narkomanlar jinoyatga tez qo'l uradilar. SHu jihatdan jamiyat uchun juda havfli hisoblanadilar. Bu ofatga qarshi huquqiy, ijtimoiy, tibbiy-biologik, ruhiy va axboriy kurash olib borgandagina samara berishi mumkin.

Bunday kurashni amalga oshirish uchun yoshlar tafakkurida mazkur sohalar nuqtai nazaridan to'liq axborotga ega bo'lish zarurati mavjud. "Giyohvandlik ustidan sud" ssenariyasi asosida amalga oshiriladigan trening ana shunday zaruratni qisman bo'lsada qondiradi. Trening roli o'yin ko'rinishida amalga oshiriladi. Rolli o'yin metodining asosiy maqsadi tinglovchilarni faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o'zlashtirishda bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O'yin har xil muammolarni hal etishdagi imitatsion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida rolli o'yinlardan foydalanish tinglovchilarni faol pozitsiyaga ega bo'lishi, masala mohiyatini anglash va unga tezkor munosabat bildirishni taqozo etadi. Rolli o'yinda ishtirokchilar faoliyati o'yin kompleksidan stimol oladi. Ishtirokchilar o'yin davomida vaziyatni tahlil qilishadi. Buning uchun ularga hech kim yordam bermaydi. O'zlarini boshqarish va uyushtirishlari orqali natijalarga erishadilar. Ishtirokchilar murakkab vaziyatlar bilan bog'liq o'yin maqsadlariga shaxsiy harakatlari orqali erishadilar va xulosalarni o'zlari qabul qiladilar. Rolli o'yinlar talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi. Rolli o'yin boshqa o'yinlardan farqli maqsadi jamoaviy yoki individual qaror qabul qilishga asoslanadi.

Trening maqsadi: Narkomaniya illatining ko'lami, sabab va oqibatlari haqida tushunchaga ega bo'lish hamda unga qarshi kurash choralarini rol vazifasidan kelib chiqqan holda individual va jamoaviy holda izlash.

Treningdan kutiladigan natija: YOshlarda sog'lom turmush tarzi tushunchasi shakllanadi, havfli odatlarga qarshi immunitet hosil qilinadi. Narkomaniya kabi illatga qarshi kurashish zaruratini ishtirokchi anglaydi. O'yin davomida qabul qilingan qarorlar ishtirokchining bevosita ishtiroki va shaxsiy xoxish-irodasi orqali qabul qilinadi. Bu esa tarbiyaning bevosita emas, bilvosita ta'sir etish uslublari hisoblanadi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: Ishtirokchilar **“portfel”**, **“mikrafon”**, **“tibbiyot simvoli”** va **“odam”** qiyofasi tushurilgan jetonlarni tanlab 4ta guruhga bo'linadilar. SHundan so'ng trener bu timsollar nimani anglatishi va uning sohiblari qanday rolni bajarishlari kerakligi haqida tushuncha beradi. **“Portfel”** – davlat va jamoa rahbarlari, huquq-tartibot organlari xodimlari belgisi, **“mikrafon”** - OAVlari xodimlari, ya'ni axboriy muhitni tashkil qiluvchi jurnalistlar belgisi, **“tibbiyot simvoli”** - tibbiy muassasa xodimlari, ruhshunoslar, narkologlar va **“odam”** – oila a'zolar, do'stlar, yaqin insonlar belgisi hisoblanadi. Trening shartlari tushuntiriladi: har bir rol sohibi so'zga chiqayotganida o'zini tanishtirishi va lavozimini aytib o'tishi shart. SHundan so'ng qisqa videorolik yoki narkomaniyaga bag'ishlangan slaydlar namoyish etiladi. Guruh a'zolari rolga kirishishlari uchun ularga A3 formatda qog'oz beriladi va har bir guruh o'z lavozimi va mavqeiga ko'ra narkomaniyaga qarshi kurashdagi maqsadi va amalga oshiradigan vazifalarini yozib chiqadi. Mazkur ishga 10-15 daqiqa vaqt ajratiladi. SHundan so'ng guruhlarning taqdimot ishi amalga oshiriladi.

Trening davomida guruh a'zolari muqobil guruhga ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda savollar yoki e'tirozlar bilan murojaat qilishlari mumkin. Bu har bir ishtirokchining faol qatnashuvini ta'minlaydi, yakka tartibdagi faoliyatini belgilaydi.

SHuningdek, trener quyidagi stereotip fikrlarni guruhlar e'tiboriga tashlaydi:

7. Aytishlaricha, yengil turdagi narkotik moddalarni iste'mol qilish u qadar zararli emas.
8. Narkotik moddalarni qabul qilish xar kimning shaxsiy ishi, begonalar bunga aralashmasliklari kerak.

9. Ayrimlar shunday fikrlaydilar: “Narkotiklarning o’zi emas, balki ularni ta’qiqlash va chegaralash ularga nisbatan qiziqishni orttiradi” (Ta’qiqlangan narsa shirindir)

10. SHunday fikr mavjud: “Narkotiklarni qonuniylashtirish va davlat nazorati ostida ularni tarqatish narkomaniya ommalashishining oldi olinadi”

Mazkur stereotip qarashlarga o’z fikr-mulohazalarini bildirish, asoslash guruh a’zolaridan talab qilinadi.

Trening yakunida uning natijalari xususida fikr almashilinadi.

Treningdan kutiladigan natija: Narkomaniya - global muammo ekanligini ishtirokchilar chuqur anglaydilar. Jamiyatning har bir qatlam vakillari bu umumiy muammoni hal etishda hamkorlik hamda alohida majburiyati borligini his etadilar. (“Eshitib – unutaman; ko’rib – yodda tutaman; bajarib – tushunaman”. (Konfutsiy).

Qo’llanadigan vositalar: ekran, qog’oz, flomaster, marker.

ERKIN TAFAKKUR YURITUVCHI «FIDOYILAR» KLUBLARINING NIZOMI UMUMIY QOIDALAR, MAQSAD VA VAZIFALAR

Erkin tafakkur yurituvchi «Fidoyilar» klublari (Bundan keyin «Fidoyilar» klubi deb yuritiladi) barcha umumta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlarida tashkil etiladi.

«Fidoyilar» klubining maqsadi—erkin fikrlovchi, o`z tafakkuri, ongli faoliyati, bilimlari, amaliy malakalari, iste’dod va qobiliyatlarini, dunyoqarashini ochiq bayon etishga ishtiyoqmand, hozirgi zamon ilg’or g’oyalarini egallagan, islohotlar mohiyatini chuqur anglagan, milliy istiqlol mafkurasini butun qalbi bilan tushunib yetgan yoshlarni tarbiyalash, ular uchun imkoniyat va sharoit yaratish, rarnatlantirib turish, qiziqishlar doirasini rivojlantirish. «fidoyilar» klubining vazifalari:

— har tomonlama rivojlangan ijodiy shaxsni shakllantirish, mamlakatimizdagi iqtisodiy, siyosiy sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish;

- yoshlarni umuminsonii va xalq qadriyatlarini aks ettiruvchi madaniyat bilan tanishtirish;
- qoʻshimcha bilimlar, malakalar egallashga boʻlgan ehtiyojlarini shakllantirish;
- yoshlarni yangi tuzumdagi iqtisodiy munosabatlarga tayyorlash;
- jismoniy, maʼnaviy sogʻlom avlodni va ijtimoiy shaxsni shakllantirishga hissa qoʻshish;
- milliy madaniyat va maʼnaviyatni oʻrganish vositasida Vatanga muhabbat ruhini yuksaltirish;
- jamoa oʻrtasida mustaqil ravishda faoliyat koʻrsatish koʻnikmalarini hosil qilishga oʻrgatish;
- oʻsmirlarda insoniy qadr-qimmat his-tuygʻusini, erkin fikrlash, boshqalarga xurmat bilan qarash xulqini singdirish va ularni yanada boyitishdan iboratdir.

«Fidoyilar» klubi ish faoliyatini tashkil etish

«Fidoyilar» klubi mustaqil fikr yurituvchi yoshlarining ehtiyojlarini toʻlaroq, qondirish va ular uchun sharoit yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Klubga aʼzo boʻlish ixtiyoriydir. Klubning bir yoki bir necha yoʻnalish boʻyicha shuʼbalari boʻlishi mumkin. Shuba aʼzolarining soni 25 nafardan oshmasligi kerak. Klubning shiori: «Vatanga muhabbat, istiqlolga sadoqat, milliy merosga hurmat!».

Klub ishiga tuman, shahar xalq taʼlimi boʻlimlari qoshida tuzilgan kengash rahbarlik qiladi. Saylab qoʻyiladigan kengashlar kamida yarim yilda bir marotaba oʻz yigʻinini oʻtkazadi.

Klub ishiga kasb-hunar kollejlarning maʼnaviy va tarbiyaviy ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosarlari, muassasalarda direktor rahbarlik qiladi.

Klub aʼzolarining huquqiy va burchlari.

Huquqlari:

- har bir klub aʼzosining manfaatlarini ximoya qilish;
- xohlagan yunalish (shubani) tanlash va undan chiqib ketish;
- klub faoliyatini yaxshilash buyicha taklif kiritish, barcha masalalar boʻyicha oʻz nuqtai nazarini himoya qilish.

Burchi:

- klub obrusi haqida g'amxo'rlik qilish;
- uning maqsad va ishlarini tarrib etish.

«Fidoyilar» klubiga rahbar qilib, qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar, fidoyi, yuksak ilmiy, axloqiy salohiyatga ega bo'lgan vatanparvar, mexnatsevar o'qituvchilar tayinlanadi.

Nizom asosida har bir kasb-hunur kollejlari muassasalari o'z nizomlarini qabul qiladilar.

Tasdiqlangan reja asosida (reja olti oyga yoki bir yilga tuzilishi mumkin) erkin tafakkur yurituvchi «Fidoyilar» klubi a'zolari tomonidan muntazam ravishda ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyiy-tashviqiy va madaniy tadbirlar o'tkazish yo'lga qo'yiladi. Ular o'rtasida xalqaro ko'rik tanlovlari o'tkaziladi hamda g'olib klublar televideniye orqali namoyish etilishi yo'lga qo'yiladi.

«Fidoyilar» klubi o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish, ular dunyoqarashiga umuminsonii va milliy qadriyatlarni singdirish maqsadlarida faoliyat ko'rsatadi.

YOshlarning o'zbek milliy kurashiga bo'lgan e'tiborini yanada kuchaytirish va milliy kurash bo'yicha yoshlar, professor-o'qituvchilar va xodimlar uchun shu'balar tashkil etish ayni muddao bo'lur edi.

Respublika oliy o'quv yurtlari yoshlari o'rtasida o'tkazilayotgan "Universiada" sport musobaqalari va bu musobaqalarni o'tkazish uchun qilinayotgan ishlar, ya'ni sport inshootlari va maydonlarni qurish, ta'mirlash, sport anjomlari bilan jixozlash kabilar maqtovg'a sazovordir.

TARBIYAVIY SOATLARNI O'TKAZISH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR

(«CHEKMASDAN YOSHLIK GASHTINI SUR» dasturi asosida)

Respublikamizda ichkilik va chekishni oldini olish ma'ysadida tajriba-sinov tariqasida «Chekmasdan yoshlik gashtini sur» tarbiyaviy dasturi amalga tatbiq etila boshlandi.

Ushbu tadbirning tashabbuskori — «O'zbekistan British — Amerika Tobakko» qo'shma korxonasi hisoblanadi. Xalq ta'limi vazirligi mazkur tadbirni qo'llab-quvvatlab boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiyani shakllantirish, o'quvchilarning zararli odatlarga chalinib qolishining, binobarin, ular o'rtasida tamaki chekishning oldini olish maqsadida yuqoridagi qo'shma korxonaga bilan hamkorlik shartnomasi tuzildi.

Hamkorlik asosida «Chekmasdan yoshlik gashtini sur» tarbiyaviy dastur loyihasi yaratildi,

Dastur loyihasi mualliflari — pedagogika fanlari doktori, prof. D.J. Sharipova va psixologiya fanlari doktori, prof. V.A. Tokareva.

Dastur tashkilotchilari va ishtirokchilari — Xalq ta'limi vazirligi, yoshlarning «Kamolot» jamgarmasi, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazi hamda «Maxalla» xayriya jamrarmasi.

Xalq ta'limi vazirligi ushbu maqsadlar uchun tajriba bazasi, loyihasining metodik asosini belgilab berib, o'quvchi-yoshlar bilan bevosita mashkulot olib boradigan o'qituvchilarning maxsus tayyorlanishini tashkil etdi.

Loyihani amalga tatbiq etish boshlanar ekan, uning qatnashchilari o'z oldilariga har bir o'smir-yoshga hayotning barcha qirralari qiziqarli ekanligini, buning uchun salomatlik va ijodiy boylik lozimligi to'g'risidagi asosiy tushunchani yetkazishni bosh tamoyil qilib qo'ygan. O'quvchilar tomonidan turli muammoli holatlarda, jumladan chekish yoki chekmaslik haqida o'z zimmasiga javobgarlik mas'uliyatini olish, qadr-qimmatini hamda muomala madaniyati, do'stlarni tanlash, nizoli vaziyatlarni to'g'ri hal etish, boy milliy an'analarimizni saqlash masalalari bosh vazifa etib belgilandi.

Dasturning maqsadi — o'quvchilarning ijtimoiy salohiyati yuksalishida mustaqil fikr va qaror qabul qilishlariga muammoli bo'lgan vaziyatlarda, shu jumladan tamaki chekishga qarshi mas'uliyatli bir qarorga kelishlariga yordam berish. Dastur o'quvchilarda yo'zaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olishda va turli vaziyatlarda mustaqil ravishda mas'uliyatli bir qarorga kelish lozimligi va shaxsning faollik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

Dasturning mohiyati — shaxs tug'ilmaydi, shaxs shakllanadi.

Dastur — kasb-hunar kolleji yoshlari uchun tarbiyaviy mashg'ulot o'tkazish hamda guruh rahbarlari uchun andoza sifatida ishlab chiqilgan.

Dasturning amaliyotga tatbiq etilishining asosiy xususiyatlari:

- dasturning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;
- dastur bo'yicha kollej o'qituvchilarining mazkur dastur mualliflari tomonidan qisqa, maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlaridan «trening»lardan o'tkazilishi;
- dastur ichki imkoniyatlarining kengligi, hayotiyligi, rivojlanib takomillashib borishi;
- dasturning xalqaro andozalariga mos kelishi, chet el tajribasidan unumli foydalanganligi;
- dasturda hamkorlikning yetakchiligi alohida urin tutishi, «Oila-kollej-mahalla-jamoatchilik»;
- dastur bo'yicha — o'qituvchilar va o'quvchilar uchun zarur bo'lgan ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlanishi;
- kollejlarda o'tayotgan tajriba-sinov jarayonining monitoringi mavjudligi;

DASTUR MODDIY ASOSGA EGA.

Tarbiyaviy dastur bosqichma-bosqich tajriba-sinov tariqasida amalga oshirilmoqda.

I BOSQICH

Navoiy viloyati Navoiy shahri №16-8 maktablari o'rtasida yilning 2-yarim yilligida tajriba-sinov tariqasida o'tkazildi.

Ushbu maktab o'qituvchilari Respublika ta'lim markazida o'tgan yilning oktyabr-dekabr oylarida dastur mualliflari tomonidan qisqa muddatli «trening»lardan o'tishgan. Dastur 6- soatga mo'ljallangan.

II BOSQICH

Ma'naviyat va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, psixologlari va guruh rahbarlari taklif etilgan. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan bu pedagoglar bevosita yosh-yoshlar bilan tarbiyaviy soatlarda mashg'ulotlar olib boradilar.

«Chekmasdan yoshlik gashtini sur» tarbiyaviy dasturi bo'yicha 24 soatga mo'ljallangan mashkulotlarning mavzusi, o'tkazish tartibi va uslubi:

Tarbiyaviy soatlarning taxminiy mavzusi:

1. Shaxs va javobgarlik.
2. Darsga qatnashish mas'uliyati.
3. Shaxs sifati - uning mustaqilligi va faolligi.
4. Shaxs obro'si va unga o'rtasida qanday erishiladi.
5. O'z-o'zini baholay olishshaxsning o'zligini belgilovchi omildir.
6. O'z-o'zini baholay olish-shaxsning ruhiy sifatidir.
7. SHaxsning o'z-o'zini nazorat qilishi va tarbiyalay olishi. O'z-o'zini tarbiyalay olishning yoshlar shaxsini kamol toptirishdagi ahamiyati. O'z-o'zini hurmat. Kamolga yetmagan shaxs jamoa o'rtasida o'zini qanday his qiladi? Do'stlari va boshqalarning tazyiqi va ta'siri.
8. Nima uchun chekadigan bolalarning atrofdagilari ham chekishi kerak?
9. Shaxs va alkogolizm.
10. Spid -shaxsning o'z-o'ziga va sog'ligiga mas'uliyatsizlarcha munosabati maxsulidir.
11. Giyohvandlik-shaxs zavolidir.
12. Ota-ona va farzandldrning o'zaro munosabati.
13. Ota-onalar farzandlaridan nimalarni kutadi?
14. Farzand ota-onasidan nimalarni kutadi?
15. Raxnamo — u kim?
16. Kim raxnamo bo'lishi kerak?
17. «Raxnamo» dasturi.
18. Raxnamolik xaqida baxs.
19. Jamiyat kommunikatsiyasi.
20. «Inson xuquqlari» dasturi.

21.. Shaxs tug'ilmaydi, shaxs shakllanadi.

(Ushbu mavzularda ma'ruza, testlar, suxbat, maqsadli o'yinlar, maxsus baxslar, maxsus mashqlar, munozaralar

Tarbiyaviy dasturning «Loyixa-Tajriba-Sinov-Taxlil-Natija» sistemasi shaklida amalga oshirilishi, uning hayotiyligini va davomiyligini, maktablarda olib boriladigan axloqiy tarbiya jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi uchun zamin bo'ladi.

Xulosa shuki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda turli tarbiyaviy tadbirlar usullaridan foidalangan holda tashkil etish, amaliyotda o'zining ijobiy natijasini beradi.

Umumiy xulosalar

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtimizda ko'plab bayramlar nishonlana boshlandi. Ular o'z mazmunicha xalqimizning azaliy an'alarini axloqiylik, urf-odatlarini va orzu umidlarini olgan bo'lib, ommaviy tarzda muntazam nishonlanib kelayapti. Albatta, bu bayramlar kishilarga zavqu, shavq bag'ishlashi barobarida, o'quvchilarda axloqiy tarbiya xos bo'lgan, insonparvarlik, an'alarimizga sadoqat, urf-odatlarimizga hurmat xissini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Quyida berilayotgan mustaqillik kuniga bag'ishlab o'tkazilgan "O'zbekiston - mening Vatanim" va o'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlab, "Ustoz - ulug' zot" nomli bayram tadbirini maktabda o'tkazgan edik, misol tariqasida ushbu tarbiyaviy bayram tadbirlarini ishlanmasini namuna sifatida keltirdim, ushbu shodiyonalarni mazmunan boy, esda qolarli qilib o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil Respublikamiz amaliyotida qo'llanayotgan baxt qomusimizda belgilab berilgan qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har tamonlama kamolga yetgan barkamol inson uchun zarur bo'lgan ma'naviyat qirralari: iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do'stlik, muruvvatlilik, qanoatlilik va sabr-toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish zarurdir.

Asrlar davomida inson aql zakovati ila bunyod etilgan boy ma'naviyati tufayli.- dedi prezidentimiz I.A.Karimov,-xalqimiz magrur yashadi, mehnat qildi,doimo hurriyat va erk sari intildi. Buyuk allomalarimiz tamonidan yaratilgan og'zaki, yozma ijodiyot, hadisi sharif, xalq kitoblari, pandnomalarda avlod-avloddan o'tib kelayotgan iymon, e'tiqod sirlarining nazariy va amaliy jihatlari haqidagi bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish lozim.

Demak,

-barkamol inson uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlar mohiyati, mazmunini to'g'ri tushunish hamda tahlil qilib munosabat bildirish;

-jamoada yashash, mehnat qilish malakalarini egallash;

-barkamol inson modulini tasovvur etish,uning ma'naviyatidagi zaruriy sifatlarni shakillantirish, shakl va yo'llarini izlash;

O'quvchilarni ma'naviy boy,jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab ularning tarbiyaviy darajasini aniqlash lozim.

O'quvchilar qalbini axloqiylik kabi fazilatlar, odob-axloq nurlari bilan yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi-o'qituvchi chqur bilim,keng mahorat va tarbiyachilik san'atini egallamog'i darkor.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi kursining maqsadi:

-bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishni nazariy va amaliy asoslari haqida bilim berish;

-insonni ma'naviy-axloqiy barkamol qilib tarbiyalashda o'zbek xalqining milliy va ma'naviy qadriyatlaridan foydalanish, manbashunoslikka o'rgatish;

-tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda o'quvchi-yoshlarning ruhiyati, qiziqish, jamoadagi ijobiy va salbiy sifatlarning mavjudligi darajasiga e'tibor berish;

-tarbiyaviy tadbirlarning sifati va samaradorligini oshrishda yangicha ishlash metodi va shakillaridan foydalanish san'atiga ega bo'lish kabilar.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi kursida tarbiyaviy tadbirlarni olayotgan o'quvchilarda milliy mafkurani shakillantirishga qaratilgan ilg'or ish tajribalaridan namuna tariqasida foydalanish lozim.

Pedagoglar ish tajribalarining ko'rsatishicha, qayerda o'quvchilarga yuksak talabchanlik, hurmat, muxabbat, ishonch kuchli bo'lsa, o'sha yerda tarbiyaning ta'siri kuchli bo'ladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'lim tarbiya masalasini mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muximligini shunday ifodalaydi. "Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mulohaza qilaman.

Buyuk marifatparvarning bu so'zlarini asrmiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bhlgan bo'lsa hozrgi kunda biz uchun ham shunchalik balki undan ham ko'ra muhim dolzarbdir. CHunki ta'lim tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni damda ong darajasi va uning rivojini, ham belgilaydigan omildir.

Binobarin, ta'lim tarbiya tizmini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bulmaydi. Ongni tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad- Ozod va obod jamiyatni barpo etib bulmaydi.

Mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturi", asosida ta'lim tarbiya islohatlari keng amalga oshirilmogda. Xalqimiz ma'rifati va ma'naviyatini yuksaltirishga harakat qilinmogda. Er, oila, ota-ona, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, vijdon erkinlik –ma'naviyat ma'rifatning ma'nosi ana shunday juda kengdir. Erkin fuqorani ongli mustaqil fikrga ega bo'lgan aqlan barkamol, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, shaxsni tarbiyalash xozrgi kunning muhim talabidir. Bu boradagi ishlarni aniq maqsadni amalga oshrish uchun davlat ahamiyatiga mollik dasturlar rejalar dasturlar ishlab chiqildi. Birgina utayotgan yillarning atalishida ham buni kurish mumkin. 1997 yil "Inson manfaatlari yili deb e'lon qilindi. Jamiyatdagi fuqoralar manfaatini himoya qilinmagan ularning ehtiyojlari qondirilmagan davlat hech qachon qudratli bo'lolmaydi. Shu bois ham avvalo inson qadri qimmatini oliy darajaga ko'tarildi. 1998 yil "Oila yili" deb e'lon qilindi. Ayol onaning jamiyatda, urnini, kelajagini, belgilashdagi bir qancha qarorlar qabul qilindi. Ayolning bola tarbiyasidagi muhim urni ham hisobga olindi va ularga e'tibor yanada kuchaydi. 2000 yil- "Sog'lom avlod yili" deb e'lon

qilindi. Bu bilan yuqoridagi maqsadlar, niyatlar bilan birga bir narsaga –ya’ni buyuk kelajak barpo etila boshlandi. Kelajagimiz bulgan yosh avlodni har tamonlama sog’lom insonlar qilib tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlar yanada kuchaytirilib yuborildi. 2001 yil-“Onalar va bolalar “ yili deb e’lon qilinib, ona va bolalarga katta g’amxurlik ko’rsatildi. Bu oldindan e’lon qilingan yillarning mantiqiy davomi bo’lib, belgilangan ijobiy ishlar yanada kengiroq davom ettirilib borildi. 2002 yili “Qariyalarni qadrlash yili” deb e’lon qilinib, jamiyatimizning hech bir qatlami e’tibordan chetda qolmasligi ko’rsatilishi bilan birga o’zbek xalqining keksalarga hurmat saqlash borasidagi azaliy qadriyatlar ham yana bir bor o’z ifodasini topdi. 2003 yili “Obod mahalla”, 2004- yil “Mehr va muruvvat” va 2005- yil “ Sihat- salomatlik” yili, 2006 yil “ Xomiylar va Shifokorlar” yili, 2007 - yil “Ijtimoiy himoya yili”, 2008 - yil “Yoshlar yili”, 2009 –yil “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”, 2010 - yil “Barkamol avlod”, 2011 yil “Kichik beznes va tadbirkorlik”, 2012 yil “Mustahkam oila” yili deb e’lon qilinishi bejiz emas. Bularning barchasi Vatan el –yurt uchun, Vatan farovonligi uchun qilinayotgan buyuk ishlardir. 1993 yil ”Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontsepsiyasi”, 1997 yil esa O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Bulardan ham asosiy maqsad yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish har tamonlama komil insonlarni va yetuk kadrlarni tarbiyalab yetishtirishdir. Ayniqsa biz yoshlarga bo’lgan e’tibordir, chunki kelajak yoshlar qo’lida. Biz yoshlar “Vatan” degan so’zni el-yurt, xalqimizning farovonligi uchun quyidagilarga o’z qalbimiz va ongimizda rivojlantirib borishimiz zarurdir.

- Axoqiy tarbiya me’zonlariga mos xislatlarni shakllantirish, qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat xislarini rivojlantirish;

-O’zimiz yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish yo’lida g’amxo’rlik qilish;

-O’z xalqimiz, davlatimiz, uning himoyasi uchun hamisha shay bo’lish;

- Mehnatga bo'lgan ijodiy munosabatimizni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzi uchun intilish;

- Axloqiy (mehribonlik, shafqatlilik, adolatparvarlik) fazilatlarni o'z ongimizda takomillashtirish;

Ko'rinib turibdiki, biz yoshlarda axloqiy tarbiyani shakllantirish uchun yaxlit umumiy ma'daniyatni shakllantiruvchi metodika tarkib topmaguncha, yangicha yondoshmaguncha bu masala o'z yechimini topa olmaydi.

Ayrim hollarda, ta'lim berishda asosiy urg'u bilim berishga qaratilishi va ba'zi tarbiyaviy masalalarda ma'suliyatsizlik tufayli ba'zi yoshlarimizning boshi berk ko'chaga kirib qolish hollari uchramoqda, shu sababli bugungi kunda jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy negizini takomillashtirish maqsadida taqdim qilinayotgan o'quv materiallarining g'oyaviy jihatdan yetuk bo'lishiga erishish zarur. Bunda o'quvchilarda axloqiy tarbiyani singdirish orqali umumiy ma'daniyat saviyasini o'stiradigan, zarur bo'lsa, xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etuvchi tizim orqali ta'sir etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.-T.: «O'zbekiston», 1994.-293 b.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: «O'zbekiston», 1997. - 328 b.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 1998, 28-бет
4. Karimov I. A. Adolatli jamiyat sari.-T.: «O'zbekiston», 1998.- 159 b.
5. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: «O'zbekiston», 1999.- 73 b.

6. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: «O'zbekiston» 1998.- 78 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston» 1998.b.
8. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., “Ma'naviyat”, 2008 y
9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: «O'zbekiston», 2003.- 38 b.
- 10.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.-T.: 1997.
- 11.O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» /Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: SHarq nashriyot - matbaa konserni. 1997. - 53 b.
12. BARKAMOL AVLOD YILI» DAVLAT DASTURI Vazirlik Hay'atining 2010 yil 9 fevraldagi majlisi 2/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan. T. – 2010
13. Abdullayeva SH., Axatova D., Sobirov B., Sayitov S. Pedagogika. T.: “Fan”, 2004.
14. SH.Abdullayeva, X.Ibragimov «Pedagogika nazariyasi va tarixi» fanidan ma'ruzalar matni . T.: “Fan”, 2004.
- 15.Абдулла Авлоний .“Туркий гулистон ёхуд ахлоқ ”,Тошкент ,”Ўзбекистон “,1992 ,12-бет
16. Abduraxmonov Abdulxay. Saodatga eltuvchi bilim.-T.: Movarounnahr, 2004. - 708 b.
17. Abu Ali ibn Sino.Tadbiri manzil. Dushanba.: «Irfon», 1980. - 420 b.
18. Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy. Hadis («Al-jomi' as-Sahiyh). 1-jild. Tarjimon Z.Ismoilov.-T.: qomuslar bosh tahririyati, 1997. 572 b.
19. Abu Iso Termiziy. Sahihi Termiziy. Tanlangan hadislar.Tarjimon Abdug'ani Abdullo.- T.:«G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashriyoti», 1993.- 91 b.
20. Azarov YU.P. Tarbiyaviy ish metodikasi.-T.: «O'qituvchi»,1991.- 67 b.
21. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat.-T.: Akademiya, 2000.- 631 b.
22. Axmedov B. Ajdodlar o'giti. Hikmatlar. Hikoyatlar. Tamoyillar. -T.: «CHO'lpon»,1991.- 234 b.

23. Axloq- odobga oid Hadis namunalari. T. A. Yo'ldoshev tahririda.-T.: Fan,1990.-146 b.
24. Asqar Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi.-T.: «O'qituvchi»,1997.- 271 b.
25. Asqar Zunnunov. Pedagogika nazariyasi. .-T.: «Aloqachi»,2006.- 163 b.
26. Barkamol avlod orzusi.-T.: «SHarq», 1999.-228 b.
27. Berdiyev G. O'quvchilarda shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. // Xalq ta'limi, № 6. 1998. 61-65-bet.
28. Bobomurodov Ahmad. Islom odobi va madaniyati.-T.:«CHo'lpon»,1995.- 98 b.
29. Botirova Z. B., Rafikov R. Z., Isayeva N. B. Giyohvandlik profilaktikasi bo'yicha uslubiy qo'llanma.-T.: Ibn Sino Xalqaro jamg'armasi. 2002.-17 b.
30. Boliyev A. Mustaqillik va taraqqiyot yo'lidan: Markaziy Osiyo Hamdo'stligi// O'zbekiston ovozi.-1997.-29 iyun.-3-b.
31. Boltaboyeva M., Sattorov M. Ilmga baxshida umr.-T.: «Adolat», 2004. 248- b.
32. Bo'riyev O. Ma'naviyat gultoji.-T.: O'qituvchi, 1997. 320 b.
33. Donolar bisotidan. Sultonov tahririda.-Toshkent.- G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. 184 b.
34. Jumaboyev Y. J. Hayot mazmuni va komil inson muammosi. //Xalq ta'limi, 1997, № 4, 17-b.
35. Jo'rayev R. H., Safarova R. G', Ibragimov X. I., Musayev U. Q. Pedagogika fani Konsepsiyasi. //Xalq ta'limi, 2004, № 5, 8-31-b.
36. J. Yo'ldoshev. Ta'limimiz istiqloli yo'lida.-T.: «SHarq»,1996.224 b.
37. J.Tulenov, B.Qodirov, Z.G'afurov. Ma'naviy yuksalish sari.T.: «Mehnat»-2000.191.
38. J.Hasanboyev, H.Sariboyev, G.Niyozov, O.Hasanboyeva, M.Usmonboyeva. Pedagogika.O'quv qo'llanma.T.: «FAN»-2006.281.
39. Ibragimov X. I., Abdullayeva SH. A. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-T.: «Fan», 2004. 182 b.
40. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika.-T.: «YAngi avlod asri» 2003. 211 b.

41. Majidov A. YOshlarda axloqiy fazilatlar qanday tarbiyalanadi? (Muammo, mulohaza, taklif). «Ma'rifat». 2002. 27- noyabr.
42. Mahalla pedagog-tarbiyachisi to'g'risida Nizom, 2002 .
43. Manaviyat yulduzlari.-T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001 yil. 407 b.
44. Mahkamov U. Madaniyat odobdan boshlanadi. // Fan va turmush.,№2, -12-b.
45. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.-T.: «CHO'lpon»,1994.78 b.
46. Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. N. Hasan tarjimasi.-T.: CHO'lpon., 1998, 178 -b.
47. Mahmudov M. Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba. // Pedagogik mahorat, 2002 , 4-son, 6-10-b .
48. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar -T. :YAngi asr avlodi, 2001.184 b.
- 49.Munavvarov A. Q. Oila pedagogikasi.-T.: «O'qituvchi», 1994.- 127 b.
50. Munavvarov A. Q.Pedagogika. -T.: «O'qituvchi », 1994. 174 b.
51. Niyoziy Hamza Hakimzoda. To'la asarlar to'plami. 5-jildlik. 2-jild.- T.: «Fan»,1998.11-b.
52. Nizomov F. Adolat g'oyasi, yohud Sohibqiron Amir Temurning huquqiy qarashlari haqida//Hayot va qonun, 2004 №1, 77 - b.
53. Narzulla Jo'rayev.Agar ogoh sen..., T .: «YOzuvchi» nashriyoti, 1998. 206 b .
54. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. Mahmud Hasaniy tarjimasi. T.: «Fan», 1994, 76 b.
- 55.Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi.-T.: «O'qituvchi», 1997.-136- b.
56. Ochilov M., Muallim - qalb mu'mori. .-T.: «O'qituvchi», 2001.
- 57.O.Hasanboyeva va boshqalar. ODOBNOVA fanini o'qitish metodikasi. - T.: «Bilim» nashriyoti 2003. 223 b.
- 58.O.Hasanboyeva. G.SHomaribxodjayeva.Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. T.:-2005.87.
59. O.Hasanboyeva. Odobnoma. (1-sinf uchun darslik) - T.: «O'qituvchi», 2000.62 b.

- 60.O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, H.Homidov. Pedagogika tarixi.-T.: «O'qituvchi»,1997.- 245 b.
61. O.Hasanboyeva.Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi.-T.: «O'qituvchi»,1997.- 178 b.
- 62.YUsupov E. Ma'naviyat asoslari –T.: 1998- 409- b.
- 63.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi № 1.T.: Qomuslar bosh tahririyati, 2000. 767- b.
- 64.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchilar: Hoshimov K., Ochil S, -T.: «O'zbekiston», 1999.- 461 b.
- 65.Quvvatov N, G'oziyev E. Vatanparvarlik his-tuyg'usini baholash mezonlari. // Xalq ta'limi, 1997 y, 2-son, .4-9-b.
- 66.Qobusnoma. Ogahiy tarjimasi.-T.: 1997.-123 b.